

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAKIMOVA NARGIZA SUPXONOVNA

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI
HAYOTIDA IJTIMOIY-HUQUQIY
ME'YORLARNING
O'RNI**

5111700-Boshlang'ich ta'lif va sport-tarbiyaviy ish so'nalishi talabalari uchun

(Uslubiy qo'llanma)



Buxoro – 2022

Hakimova N. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning o‘rni

Mas’ul muharrir: M.Yo. Ro‘ziyeva Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasи, mudiri, dotsent, f.f.f.d.

Taqrizchilar: N.A. Atakulova Andijon davlat universiteti, Umumiy pedagogika kafedrasи dotsenti, p.f.f.d.

G.R. Akramova Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasи dotsenti, p.f.f.d.

Mazkur metodik qo‘llanma 5111700-Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish so‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan blib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning o‘rni, ta’lim jarayonida ushbu ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantirish, ushbu me’yorlarni o‘qitish tizimini yaratish uchun zarur bo‘lgan metodlar, vositalar, ularni takomillashtirish yo‘llari to‘g‘risida fikr bayon etiladi.

Ushbu metodik qo‘llanmadan boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, pedagogika oliygohlari bitiruvchilari, magistrantlar pedagogik faoliyatlarini tashkil qilishda foydalanishlari mumkin.

Mazkur metodik qo‘llanma Buxoro davlat universitetining o‘quv uslubiy kengashining 2022-yil 31-yanvardagi 6-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o‘rin egallamokda. Barqarorlik va tartib, millatlararo totuvlik va fuqarolar ahilligi tufayli yosh davlatimiz ishonch va hurmatga sazovor bo‘lmoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma’naviy o‘zgartirish sohasida keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazilmoqda. O‘tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘likdir. Shaxsning siyosiy faolligi, uning chinakam fuqaroviylar munosabati, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omildir. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta’minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat — umumiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi. Insonlar ongida shunday ishonch qaror topishi kerakki, huquqiy bilimlarga ega bo‘lgan va ularni amaliyotda tatbiq eta oladigan kishigina madaniyatli va bilimli deb hisoblanishi mumkin. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Huquqiy madaniyat huquqiy bilim, huquqiy e’tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatlari hal etilishini ta’minlaydi.¹

¹ O‘zbekiston respublikasi Oliy majlisining 1999-yil 28-avgustdagи jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida” gi 466-i-son qarori

Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu Milliy dastur qabul qilindi.

Milliy dasturning maqsadi aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

Ko'rsatilgan maqsadga erishishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

huquqiy ta'lif va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish;

barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar va fuqarolarning qonunga hamda huquqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishiga erishish;

aholining huquqiy savodxonligini oshirish; fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini ta'minlash.

Huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish sohasidagi davlat siyosati quyidagi prinsiplarga asoslanadi: inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi; Konstitutsiya va qonunning ustunligi; demokratiyaga asoslanganlik; ijtimoiy adolat; ilmiylik; uzluksizlik; huquqiy tarbiyadagi vorislik hamda umumiylilik; huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi; huquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqlashtirilgan yondashuv.

Yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

fuqaro, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyati hamda ijtimoiy faolligi yuksalishini ta'minlash;

aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish;

aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash, ilmiy-ommabop yuridik adabiyotlar nashr qilinishi va tarqatilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

huquqiy ta'lif va huquqiy tarbiya vositalari va usullarini takomillashtirish;

yuridik ta'lif, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini

rivojlantirish;

huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag‘batlantirish, ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish;

milliy an'analar hamda jahon tajribasidan foydalanish asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish kabilar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan huquqiy mezonlarni yoshlar ongida tarkib toptirish, ularda kichik maktab yoshidan boshlab huquqiy madaniyatini shakllantirish kabi masalalar bugungi kunda davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish maktab ta’lim tizimi zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi.

Давринг ушбу ўта муҳим талаби хукуматимиз томонидан қабул қилинган қатор қарор ва фармойишлар ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев асарлари мазмунида ўзининг ёрқин ифодасини топган.

Respublikada fuqarolik boshqaruviiga asoslangan jamiyat qurish yo‘lida o‘quvchilar, shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan yaqindan tanishtirish, ularga qat’iy amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kunning dolzARB masalasi, bosh shioriga aylandi. Zero, “huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi”².

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish muayyan vaqtni talab etadi. Mazkur vaqt oralig‘ida ana shu maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari

² Karimov I.A. Yuksak huquqiy tafakkur – demokratik jamiyat taqozosi // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 322-bet.

hamda bilish darajasini inobatga olgan holda ular tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni ajratib olish;

- ko'rsatilgan yosh davri o'quvchilarining hayoti, kundalik faoliyatlarida ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni ular ongiga singdirishning maqbul shakl, metod va vositalarini aniqlash;

- ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning ahamiyatini ko'rsatish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ularni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyat-mazmunining puxta anglanishiga erishish;

ijtimoiy-huquqiy me'yorlar to'g'risida ma'lumot berishda pedagogik faoliyatning ko'rgazmali-amaliy xususiyat kasb etishiga e'tiborni qaratish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati to'g'risidagi tushunchalarini singdirish, ularga nisbatan hurmatni qaror toptirish masalalar mazkur yo'nalish doirasida o'z yechimini kutayotgan muammolardan biridir.

Muammoni o'rghanishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlari va bilish darajasiga muvofiq holda ular tomonidan o'zlashtirish mumkin bo'lgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar ajratib olindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mazmunan ikki: ijtimoiy me'yorlar va huquqiy me'yorlar kabi guruhlarga ajratildi.

Har ikki guruhga kiritilgan me'yorlar o'rtasida muayyan farq mavjudligi (rioya etilishiga ko'ra huquqiy me'yorlarning majburiylik yoki ijtimoiy me'yorlarning ixtiyorilik xarakterga egaligi)ga qaramay, ular umumiyl maqsadga – ijtimoiy munosabatlarni mo'tadil tashkil qilish va tartibga solishga yo'naltiriladi.

Nazariy tahlil va boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlarini kuzatish natijasida ularni quyidagi ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirish pedagogik jihatdan to'g'ri deb topildi: shaxsning oila, jamiyat, davlat, moddiy borliq, ijtimoiy aloqalar va tabiatga bo'lgan munosabati mazmunini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy qarashlar,

milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g‘oyalari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan huquqiy me’yorlarning o‘zlashtirilishi va ularga amal qilinishi ham ahamiyatli bo‘lib, turli ko‘rinishdagi faoliyatni qonuniy tarzda amalga oshirishga odatlanishlari, qonunlarni hurmat qilish hissiga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Huquqiy me’yor ijtimoiy me’yorlarning bir turi bo‘lib, “ma’lum bir sharoitlarda o‘zini qanday tutish haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan irodaviy tartibga soluvchi ko‘rsatma” sifatida aks etadi. “Uning xususiyati shundaki, bu davlat bilan mustahkam bog‘langandir. U qonunda yoki boshqa huquqiy aktda aks ettirilgan bo‘lishi, davlatning majburlash kuchi bilan ta’milanishi kerak. Huquqiy me’yor ijtimoiy munosabatlarni davlatning vazifalari va funksiyalari bilan mos kelgan holda tartibga solinishiga qaratilgandir.

Davlat esa huquqiy me’yorlarning amalga oshirilishi shakllarini belgilab beradi”³.

O‘rganish natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi huquqiy me’yorlardan xabardor bo‘lishlari zarurligini ko‘rsatdi: davlat ramzları (davlat Prezidenti, bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, pul birligi)ga hurmat ko‘rsatish, davlat va fuqarolar multiga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, jamoat tartibini saqlash, jamoat transportidan foydalanish, ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish, iste’molchi sifatida huquq va burchlarini bilish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish chog‘ida ularning xarakteriga ko‘ra ta’qiqlovchi, majburlovchi va vakolat beruvchi me’yorlarga ajratilishini tushuntirish, ularning mohiyatini ko‘rgazmali tarzda, hayotiy (bevosita o‘quvchilar faoliyatiga oid) misollar yordamida ochib berish pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning mohiyati to‘g‘risidagi tushunchalarni singdirish, ularga nisbatan hurmatni qaror toptirish masalalari mazkur yo‘nalish doirasida o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bu yo‘lda pedagogik faoliyatni tashkil etishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologiya xususiyatlarini inobatga

³ Каримова О., Фаффоров З. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 45-46- 6

olgan holda ularning hayoti, kundalik faoliyatiga aloqador ijtimoiy-me'yorlarni ajratib olish talab etiladi. Ular haqida o'quvchilarga ma'lumot berishda esa pedagogik faoliyatning ko'rgazmali bo'lishiga, hayotiy misollardan o'rinni foydalanishga alohida e'tibor qaratish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning kafolati sanaladi.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY VA HUQUQIY ME'YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI



Mustaqillik yillarida tom ma'noda uzluksiz ta'lim mazmuni tubdan yangilandi. Yangilangan ta'lim mazmunida o'zgarayotgan jamiyat, global axborotlashuv jarayonining mohiyati aks etishiga, shuningdek, shaxs kamolotini ta'minlash borasida yuzaga kelgan ijtimoiy zaruriyatning inobatga olinishiga e'tibor karatildi. Uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limning ham huquqiy negizlari yaratildi. Bugungi kunda respublika miqyosida tashkil etilayotgan boshlang'ich ta'limning umumiy mohiyati "Boshlang'ich ta'lim Konsepsiysi"da belgilab berilgan tamoyillar asosida yo'lga qo'yilmoqda. Mazkur metodologik hujjatga ko'ra boshlang'ich ta'lim quyidagi maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim: bolalarning psixologik va fiziologik salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash; barcha faoliyat turlari bo'yicha bolalar tashabbusini uyg'otish va qo'llab-quvvatlash; muloqot va hamkorlik ko'nikmalarining shakllanishiga erishish; o'ziga ijobiy baho berish va o'ziga bo'lgan ishonchni qo'llab-quvvatlash; o'quv mustaqilligini shakllantirish (o'qishga bo'lgan xohish va ko'nikma, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlar darajasini kengaytirib borish⁴.

Yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayoniga faol jalb etish, shaxslararo muloqotni samarali tashkil etishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo'lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa muayyan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar asosida tashkil etiladi. Ko'p holatlarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlar

⁴ Башлангич таълим Концепцияси / Муаллифлар: Қ.А.Абдуллаева, Р.Ф.Сафарова, М.О.Очилов, К.Н.Назаров, Н.У.Бикбаева, М.А.Зайнитдинова // Boshlang'ch ta'lim j. – Тошкент: 1998. 6-сон. – 12-18-бетлар.

asosida tartibga solinadigan munosabatlar jarayoni ishtirokchilarning madaniyatlilik darajasini ham ifodalashga xizmat qiladi. Jamoa joylarida o‘zini tutish, kinoteatrлarga tashrif buyurish, umumiyligi ovqatlanish muassasalarida maishiy xizmat turlari, jamoa transportidan foydalanish, shuningdek, yo‘l harakati qoidalariiga rioya qilish jarayonida shaxsning umumiyligi madaniyati namoyon bo‘ladi. Shu bois oila, maktabgacha tarbiya va umumiyligi o‘rtalim muassasalarida bolalarni so‘z yuritilgan jarayonlar uchun taalluqli bo‘lgan ijtimoiy va huquqiy meyorlar bilan tanishtirish, ularga qat’iy rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

Muammoni yoritishda, eng avvalo, “madaniy xulq-atvor” tushunchasi qanday mohiyatga egaligini aniqlab olish lozim. Ushbu tushuncha anglanganidek, “madaniy” va “xulq-atvor” tushunchalarining o‘zaro birlashuvi asosida shakllangan. Manbalarda “madaniy” atamasi “madaniyat” tushunchasi negizida shakllangan. Shu sababli dastlab “madaniyat” tushunchasining mazmuni bilan tanishib olamiz.

Manbalarda “madaniyat” tushunchasiga shunday ta’riflar beriladi:

1. Lotincha “cultura” atamasidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi; mumtoz lotin tilida “madaniyat” tushunchasi “yerni parvarish qilish”, “yerga ishlov berish” ma’nosida qo‘llanilib kelingan... Keyinchalik “madaniyat” tushunchasi bilimdon, ma’rifatli, yuksak tarbiyalı insonlarni ta’riflashda ham ishlatila boshlanadi⁵.

2. Dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar uchun umumiyligi axloq qoidalari tizimi; shaxs xulq-atvori, muomalasi va xatti-harakatlarining ma’lum ketma-ketlik asosida shakllangan tizimi; jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy hayotida qo‘lga kiritilgan yutuqlar majmui; inson faoliyatining mahsuli, natijasi⁶.

3. Arabcha “madiniyat” (Madina shahrida VII ayerdan boshlab targ‘ib

⁵ Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат / Муаллифлар: М.Н.Абдуллаев ва бошқ. Масъул мухаррир: А.Жалолов. – Тошкент: “Шарқ” НМАК Бош таҳририяти, 2004. – 193-бет.

⁶ Педагогика фанидан изоҳли луғат/Муаллифлар: Ж.Ҳасанбоев ва бошқ. М.Х.Тоҳтаходжаева нинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: “Fan va texnologiyalar”нашиёти, 2009.250-251бет.

etila boshlagan yangi dunyoqarash tarafдорлари va ular izdoshlarining qarashlari, nuqtayi nazarlari va amaliy xatti-harakatlari majmui) so‘zidan olingan bo‘lib, kishilarning tabiatni, borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar, ularni qayta tiklash hamda rivojlantirish yo‘llari, uslublari majmui; inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkichi⁷.

4. Insonning ijodiy kuchi aks etadigan fikriy, ma’naviy yoki badiiy faoliyat mahsuli. Tushunchaning mohiyatini quyidagi uch talqinda ifodalash mumkin:

1) moddiy va ma’naviy qarashlar mohiyati;

2)bir qator bilimlar sohasi: tafakkur, mehnat, nutq, xulq-atvor va boshqalarning rivojlanish bosqichlari;

3)inson mohiyatini ifodalovchi ijtimoiy va mental rivojlanish darajasi⁸.

5. Intellektual, ma’naviy va estetik taraqqiyotning umumiy jarayoni; huquq, tartib, axloqiy talab va boshqalarga asoslangan jamiyat holati (shu jihatiga ko‘ra “madaniyat” so‘zi “sivilizatsiya” atamasiga mos keladi); qandaydir jamiyat, kishilar guruhi yoki tarixiy davrning mavjudligi yoki turmush tarziga xos belgilarning ifodalanishi; intellektual, yanada aniqrog‘i, badiiy faoliyat (musiqa, adabiyot, rassomlik, teatr, kino va hokazolar)ning shakl va u yordamida yaratilgan boyliklar⁹.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, “madaniyat” tushunchasining shakllanishi bevosita insoniyat tarixi taraqqiyotining muayyan davri bilan bog‘liq. Ovchilik va terib-termachlab kun ko‘rgan insoniyat tomonidan yerga ishlov berish, ya’ni dehqonchilik sirlarining o‘rganilishi ana shu tushuncha bilan ifodalana boshlagan. Dehqonchilikning paydo bo‘lishi mo‘l-ko‘l oziq-ovqat manbalarini izlaydigan odamlar guruhining o‘troq hayotga moslashishini ta’minladi. Endilikda muqim bir joyda yashaydigan inson dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

⁷ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at / Mualliflar: M.Abdullayev va boshq. R.Ro‘ziyev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: “Sharq” NMAK Bosh tahririysi, 2006. – 171-172-betlar.

⁸ Большая психологическая энциклопедия / Авторский коллектив: А.Б.Альмуханова и др. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 197.

⁹ Ионин Л.Г. Социология культуры /Учеб. пособие. Второе изд-е. Москва,“Логос”,1998.С. 11.

haqidagina emas, shu bilan birga turmush tarzida ma'lum qulayliklarni yaratish to'g'risida ham o'ylay boshladi. Dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga o'troq qabila va urug'lar chorva (ot, tuyu, sigir va boshqa) hayvonlarini ham tobora ko'proq qo'lga o'rgatdi. Shu bilan birga chorva hayvonlarini ko'paytirish to'g'risida ham g'amxo'rlik qila boshladi. Inson hayotida muhim o'rin tutgan bu ikki sohaning rivojlanishi o'z navbatida kishilar o'rtasidagi munosabatlarda yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishini ta'minladi.

Maishiy hayotda ro'y berayotgan doimiy o'zgarishlar kishilarda nafaqat moddiy, shu bilan birga ma'naviy ehtiyojlar doirasini ham kengaytirdi. Moddiy borliq va insoniyatga xos hayotiy faoliyat mazmunini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj esa ilmiy bilimlarni keng ko'lamda rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Bu davrda kelib, "madaniyat" tushunchasi "jamiatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlar"¹⁰ mohiyati ifodalay boshladi. Shunga ko'ra "madaniyat" tushunchasiga inson faoliyatining mahsuli uning darajasini ifodalovchi sifat ko'rsatkichi, shuningdek, xulq-atvor mohiyati nuqtayi nazardan yondashish ham mantiqan to'g'ridir. Demak, "madaniy xulq-atvor" tushunchasi shaxs xulq-atvorining insoniyat tomonidan asrlar davomida o'zlashtirilgan hayotiy tajribalarga muvofiq asoslangan qoida, me'yorlarga muvofiq ekanligini anglatadi.

3. Freyd fikriga ko'ra, madaniyat o'zida boshqa mayjudotlardan yuqori bo'lgan insoniyatga xos hayotiy tajribalarni ifodalaydi. Insoniyat o'z tarixi taraqqiyotida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda vorisyilik tamoyiliga asoslangan ulkan hayotiy tajribaga ega bo'ldi. To'plangan hayotiy tajribaning ajdodlar tomonidan avlodlarga uzatilishida ularning xulq-atvorini axloqiy jihatdan boshqarishga yo'naltirilgan ijtimoiy me'yorlar ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Shaxsga xos bo'lgan madaniy xulq-atvor jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumi ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti, shuningdek, yo'llarda yurish)da yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda yoshlarni jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumi ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da o'zlarini tuta bilishga

¹⁰ Педагогика фанидан изоҳли луғат / Муаллифлар: Ж.Ҳасанбоев ва бошк. М.Х.Тоҳтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: “Fan va texnologiyalar”

o‘rgatish nihoyatda muhim. Zero, keyingi vaqtarda yoshlar jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovkatlanish muassasasi va jamoa transporti)da jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan ijtimoiy me’yorlarga riosa qilmayaptilar. Jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporta)da ijtimoiy me’yorlarga riosa qilmaslik atrofdagilar uchun noqulayliklarni yuzaga keltirish bilan birga shaxsning qanday tarbiya ko‘rganligidan ham dalolat beradi.

Boshlang‘ich ta’lim davrida bu yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish imkoniyati yanada oshadi. Chunki, ijtimoiy va huquqiy me’yorlar mohiyati muayyan darajada “O‘qish”, “Odobnama”, “Atrofimizdagi olam” va “Konstitutsiya alifbosi” kabi o‘quv fanlari mazmuniga singdirilgan. Xo‘s, o‘quv fanlari negizida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish qanday amalga oshiriladi? Bu jarayonda hech shubhasiz asosiy subyekt bo‘lgan o‘qituvchi faoliyatni tashkil etishda nimalarga e’tibor qaratishi lozim? Quyida ana shu savollarga javob topishga e’tibor qaratiladi?

Kasbiy faoliyati nuqtayi nazaridan o‘qituvchi bolalarga ta’lim berish (ularni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishtirish, o‘qishni va yozishni o‘rgatish) va tarbiyalash (o‘quvchi shaxsida ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat, estetik va hokazo sifatlarni shakllantirish)dan iborat vazifani bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ham o‘qituvchi faoliyati ikki muhim yo‘nalish, ya’ni o‘qitish va tarbiyalashdan iborat bo‘ladi. Mazkur jarayonda asosiy maqsad o‘quvchilar ongiga ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning ijtimoiy va har bir shaxs uchun xususiy ahamiyatiga oid nazariy bilimlarni singdirish orqali hurmat hissini tarbiyalash bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun o‘qituvchi muayyan vazifalarni bajarishi lozim. Jumladan:


- ijtimoiy me’yorlar orasidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kundalik faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lganlarini ajratib olish;
- ajratib olingan ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga oid tushunchalarining murakkablik darajasini tahlil qilish;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy hamda huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirilish imkoniyatlarini baholash;
- ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga oid tushunchalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan puxta o‘zlashtirishga imkon beradigan yo’llar, omillar, samarali shakllar, metodlar va vositalarni aniqlash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishni uyg‘ota olish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tanlay bilish;
- o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga muvofiq faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash;
- o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati, shaxsiy yo‘naltirilganligiga doir nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash olishlari uchun ta’lim hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlar o‘rtasida integratsiyani qaror toptirish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga doir bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini nazorat qilish va baholash.

O‘qituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish yo‘lida pedagogik faoliyatni tashkil etar ekan, undan ijtimoiy me’yorlar to‘g‘risida ma’lumot beradigan manba va vositalardan yaxshi xabardor bo‘lish talab qilinadi.

Tanlangan muammoni nazariy o‘rganish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilish imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘qituvchining quyidagi vositalardan xabardor bo‘lishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning samarali o‘zlashtirilishiga yordam berishi aniqlandi.

(1-rasm):



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini shakllantiruvchi vositalar




Boshlang'ich sinflarda pedagoglar ham fan o'qituvchisi, ham sinf rahbari sifatida o'quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga hurmat ruhida tarbiyalashga o'z hissasalarini qo'shadilar. O'qituvchining muayyan sinf jamoasiga rahbarlik qilishi nafaqat ta'lif jarayonida, shu bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida ham ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targ'ibotiga doir tadbirlarni izchil tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Odatda, bu boradagi faoliyat ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga muvofiq olib boriladi. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targ'ibotiga oid tadbirlarning o'rin olishi pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga “O'quvchilar qoidasi”, salomlashish odobi, to'g'ri

jarayonida, shu bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida ham ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targ'ibotiga doir tadbirlarni izchil tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Odatda, bu boradagi faoliyat ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga muvofiq olib boriladi. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targ'ibotiga oid tadbirlarning o'rin olishi pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga “O'quvchilar qoidasi”, salomlashish odobi, to'g'ri

ovqatlanish tartibi, kiyinish madaniyati, shaxsning jamoa joylarida o‘zini tutishiga oid qoidalari, harakat xavfsizligi qoidalari, jamoa transportidan foydalanish qoidalari, madaniy dam olishni tashkillashtiruvchi muassasalar – kinoteatr, muzey va istirohat bog‘lariga tashrif buyurish, yong‘in xavfsizligi va elektrotexnika vositalaridan foydalanish qoidalari bilan o‘quvchilarni tanishtirishga doir tadbirlarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

To‘rt yillik muddatni o‘z ichiga oladigan boshlang‘ich ta’lim jarayoni o‘quvchilarining bilish faolligi, dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyatining rivojlanganligiga ko‘ra shartli ravishda ikki bosqichga ajratiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ham ana shu ikki bosqich inobatga olinishi lozim. (2-rasm):



**2-rasm. Boshlang‘ich ta’limning ikki bosqichida o‘quvchilar tomonidan
o‘zlashtiriladigan ijtimoiy-huquqiy me’yorlar**



Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining birinchi va ikkinchi sinflarida o‘quvchilar ijtimoiy va huquqiy me’yorlar borasida oila, shuningdek, matabgacha ta’lim muassasalarida o‘zlashtirgan bilimlarini anglanishi u qadar murakkab bo‘lmagan yangi tushunchalar bilan

boyitish, mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu bosqichda o‘quvchilar “O‘quvchilar qoidasi” talablari, salomlashish va so‘zlashish odobi, to‘g‘ri ovqatlanish tartibi, shuningdek, jamoa joylarida o‘zni tutishga oid, harakat xavfsizligi va jamoa transportidan foydalanish qoidalari bilan birinchi marta yoki qayta (maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘zlashtirilgan tushunchalar bilan) tanishish orqali ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning mohiyati, ijtimoiy ahamiyati va shaxsga yo‘naltirilganlik xususiyati anglab boradilar. Qayd etilgan ijtimoiy me’yorlarning turlari bilan tanishish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Biroq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining uchinchi va to‘rtinchi sinflarida tahsil olish chog‘ida o‘quvchilar bir qadar murakkab bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar bilan tanishadilar. Jumladan, kiyinish madaniyati, madaniy muassasalar – kinoteatr, muzey va istirohat bog‘larida bo‘lish, yong‘in hamda texnika xavfsizligi qoidalari bilan yaqindan tanishadilar.

Shunga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yuqorida ko‘rsatilgan ikki bosqichning har birida o‘ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishga e’tibor qaratishi kerak. Birinchi va ikkinchi sinflarda o‘quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me’yorlar mohiyatini tushuntirishda o‘yinlar, ertak qahramonlari ishtirokidagi tomoshalar, ijtimoiy-huquqiy me’yorlar mohiyatini yorituvchi, to‘qima ertak va topishmoqlar kabi vositalardan samarali foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Ertak va topishmoqlarni bevosita o‘qituvchining o‘zi to‘qishi yoki hamkasblar, yozuvchi va shoirlar tomonidan tomonidan yaratilgan namunalaridan foydalanishlari mumkin.

Uchinchi hamda to‘rtinchi sinflarda esa bu yo‘lda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning musobaqa, muayyan amaliy topshiriqlar shaklida tashkil etish samarali sanaladi. Bu jarayonda ham o‘qituvchining ijobiy qobiliyatga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, uning mashg‘ulot yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorlikka erishishni kafolatlabgina qolmay, o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me’yorlarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishni ham yuzaga keltiradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan

tanishtirishda dastlab ular tomonidan salomlashish jarayonida amal qilinadigan qoidalardan xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

Salomlashish kishilar o‘rtasida tashkil etiladigan ijtimoiy munosabatlarda muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi muomala shakli hamda o‘zaro munosabatlar jarayonining boshlang‘ich bosqichi sifatida namoyon bo‘ladigan salomlashish ikki shaxs o‘rtasidagi ruhiy holatni ham ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, salomalashish muayyan me’yorlar, axloqiy talablar asosida tashkil etilishi bois o‘ziga xos ijtimoiy xususiyat ham kasb etadi. Binobarin, salomlashish jarayonida shaxsning odobi, ma’naviyati, dunyoqarashi, madaniy shakllanganlik darajasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy munosabatlar negizida aks etganligi sababli kishilarning har bir ijtimoiy guruhi (xalq, millat, elat, qabila va urug‘) tomonidan juda qadimdan salomalashish jarayonini tashkil etishga nisbatan muayyan talablar shakllantirilib kelingan. Turli xalq, millat, elat, qabila va urug‘lar tomonidan shakllantirilgan me’yorlarga muvofiq salomlashish jarayonini muayyan so‘zlar, jestlar (ko‘proq qo‘l harakatlari) yordamida ifodalangan. Salomlashish me’yorlari (talablari) odatda muayyan ijtimoiy guruh (xalq, millat, elat, qabila, urug‘)ning etnopsixologiyasi, turmush tarzi, hayotiy intilishlari, ular uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlar asosida shakllantirilgan. Garchi salomlashish jarayoni turli ijtimoiy guruhlarda turlicha kechsa-da, biroq, bu jarayonlarning barchasi yagona maqsad – kishilar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, tinchlik va birodarlikni qaror toptirishga xizmat qilib kelgan. Bu haqida “Hadis”da shunday deyiladi: “Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o‘rtalaringda mehru muhabbat uyg‘onadi”¹¹.

Kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning ezgu g‘oyalarga asoslanishida katta ahamiyat kasb etishi tufayli salomlashishning ijtimoiy qimmati yuqori baholanadi. Shunga ko‘ra turli xalqlarda yosh avlodni salomalashish jarayonining mohiyati bilan tanishtirish, to‘g‘ri salomlashishga o‘rgatishga muhim tarbiyaviy vazifalardan biri sifatida qaralgan. Pedagogik mazmundagi asarlarda ham salomalashish qoida (me’yor, talab)larining yoritilishiga e’tibor qaratilgan. Jumladan, XVIII asr va XIX

¹¹ Hadislar – bolalarga. – Toshkent: “Adolat”, 2004. – 15-bet.

asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” (“Solih (yaxshi) kishilar odobi”) nomli asarida ijtimoiy munosabatlarning turli ko‘rinishlari bilan bir qatorda kishilarning bir-birlari bilan salomlashishlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ham so‘z yuritiladi. Muallifning e’tirof etishicha, “adabi avval – ikki mo‘min kishi kelsalar, xoh oshno va xoh nooshno, salom berishgaylarki, salom bermak sunnatdir, javobi farzi ayndir”¹². YA’ni, salom berish bajarilishi zarur bo‘lgan amal bo‘lsa, salomga alik olish, javob qaytarish musulmon kishilar tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan harakat sanaladi.

Asarda salomlashish me’yor (talab)lari quyidagilar ekanligi aytiladi:

- ulug‘ (yoshi katta kishi) kichikkka;
- otliq (bugungi kunda transportni boshqaruvchi) piyodaga;
- yuruvchi (yurib ketayotgan kishi) o‘tiruvchi (o‘tirgan kishi)ga;
- oz (oz sonli kishilar) ko‘pga (ko‘p sonli kishilar)ga;
- xonaga kirib kelgan kishi bu yerda o‘tirganlarga salom berishi shart.

Bugungi kunda ham salomlashish ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi muhim aloqa jarayoni va shaxs odobining eng oddiy ko‘rinishi sifatida aks etadi. Salomlashish o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ham namoyon qiladi. “So‘rashayotganlarning fe’l-atvori, xarakteri, tarbiyaviy darajasi, ichki kechinmalari, o‘sha paytdagi kayfiyati hamda ko‘rishuvchiga, salom bergen kishiga bo‘lgan munosabati va undan farqi” yaqqol ko‘zga tashlanadi¹³. Shu sababli oila va ta’lim muassasalarida yoshlarni salomlashishga qo‘yiladigan talablar – ijtimoiy me’yorlar bilan tanishtirib borish, to‘g‘ri salomlashishga o‘rgatish orqali ularda ijtimoiy munosabatlarga moslashish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofikdir.

Kishilar o‘rtasida tashkil etiladigan ijtimoiy munosabatlarda ularning bir-birlari bilan o‘zaro so‘zlashish (suhbatlashish)lari alohida o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ularni so‘zlashuv me’yorlari to‘g‘risida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma hamda mal akal arni o‘zlashtirishlariga alohida e’tibor qaratish bu borada

¹²Pedagogika tarixi/Pedagogika oliy o‘quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun o‘quv қўлланма. К.Хошимов ва бошқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 235-бет.

ijobiy natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Nutq insonlargagina xos bo'lgan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Faoliyat turi sifatida aniq maqsadga yo'naltirilgan nutq "kishilik taraqqiyoti tarixida yuzaga kelgan va o'zaro muomalani tashkil etish uchun zarur so'zlashuv ko'nikmalarining rivojlanishi natijasida mustahkamlangan"¹⁴. Nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud bo'lib, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida asosan og'zaki nutqdan foydalaniladi. Insoniy faoliyatning ushbu turi "mavhum-mantiqiy fikrlash va ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Nutq negizida kechadigan fikriy faoliyat jarayonida esa tasavvurning shakllanishi ro'y beradi... Nutqining hissiy imkoniyati tufayli inson u yoki bu voqeа-hodisaga o'z munosabatini bildiradi"¹⁵.

Insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishning o'ta ta'sirchan vositasi bo'lgan nutqning ifodalanishiga asrlar davomida katta e'tibor qaratib kelingan. Har bir millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida nutqni ifoda etish, u yordamida atrofdagilar bilan o'zaro aloqa qilish qoida (talab, me'yor)lari ishlab chiqilgan. "Kishilarning muloqotga asoslangan birgalikdagi faoliyatлари u yoki bu jamiyat tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar asosida aks etuvchi ijtimoiy nazorat mavjud bo'lgan sharoitda kechadi. Ijtimoiy subyektlarning har qanday hayotiy faoliyatлари kabi ular tomonidan tashkil etiladigan muloqot jarayoni muayyan me'yor va qoidalar asosida tartibga solinadi"¹⁶.

Muloqot (so'zlashish) - "insonlar orasida oddiy, kundalik so'zlashuv aloqasi bo'lib, ko'p qirrali faoliyat turidir..."

Muloqotning eng umumiy ko'rinishi hayotiy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Uning ijtimoiy ma'nosи shundaki, muloqot madaniyat shakli va jamoatchilik an'anasing vositasi bo'lib xizmat qiladi. Muloqotning xususiyati, mazkur jarayonida bir insonning subyektiv dunyosi boshka kishi uchun ochiladi. Muloqotda inson o'z xususiyatlari orqali o'zini namoyon qiladi. Amalga oshirilgan xatti-harakat shakliga karab, insonning xarakteri borasida xul osa chikarish mumkin.

¹³ Маҳмудов К. Мехмоннома. – Тошкент: "Ёш гвардия" нашриёти, 1989. – 164-бет.

¹⁴ Большая психологическая энциклопедия. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 396.

¹⁵ Ўша манба. – С. 396.

¹⁶ http://www.goup32441.narod.ru/files/ogp/001oporn_konspekt/2010-08-1.html.

Nutq orqali ma'lumot berish xususiyatiga ko'ra esa uning umumiyligi madaniyati hamda ma'naviyatiga baho berish mumkin"¹⁷.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarda yosh xususiyatlariga ko'ra "nutq zarur darajada o'sgan bo'lib, aktiv (faol) va passiv (sust) lug'ati ancha taraqqiy etganligi tufayli, o'qituvchi tushuntirishlarining ma'nosini yaxshi angray oladi"¹⁸. Shu bois boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga so'zlashuv (muomala) me'yorlari to'g'risida ma'lumotlarni berish orqali ularni atrofdagilar bilan o'zaro muloqotni to'g'ri tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratish bu yo'lda pedagogik faoliyatni samarali olib borishda qiyinchilik va murakkabliklarni yuzaga keltirmaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda so'zlashuv me'yorlariga amal qilish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish quyidagi vazifalarni bajarish orqali ta'minlanadi:

1. O'quvchilarni "so'zlashish" hamda "muomala", shuningdek, "so'zlashish me'yorlari" ("muomala me'yorlari") kabi tushunchalar bilan tanishtirish.
2. O'quvchilarga so'zlashuv (muomala)ning, kishilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etishdagi ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini ko'rsatib berish.
3. O'quvchilarda so'zlashuv (muomala) me'yorlariga amal qilmaslikning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish.
4. O'quvchilarni nutqiy murojaat turlari bilan yaqindan tanishtirish.
5. O'quvchilar tomonidan so'zlashuv (muomala) me'yorlari to'g'risidagi tushunchalarning yetarlicha o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratish.
6. O'quvchilarda ijtimoiy subyektlar (ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, o'qituvchilar, sinfdoshlar, tengdoshlar, shuningdek, ularning atrofidagi boshqa kishilar) bilan to'g'ri so'zlashish ko'nikmalarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanishtirish zarur bo'lgan ijtimoiy me'yorlardan yana biri - bu hayot va texnika xavfsizligi qoidalari sanaladi. Hayot va texnika

¹⁷ Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti / O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Akademiya", nashriyoti, 2006.-122-123-betlar.

¹⁸ Pedagogika / Pedagogika institutlari uchun darslik. Akad. S.R.Rajabovning umumiyligi tahriri ostida. – Toshkent: "O'qituvchi", 2000. – 50-bet.

xavfsizligi qoidalari barcha yoshdagи ijtimoiy subyektlarda bo‘lgani kabi boshlang‘ich sinflarda ham o‘quvchilarni turli xavf-xatarlardan muhofazalash, kelib chiqish ehtiymoli bo‘lgan ko‘ngilsizliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

“Hayot xavfsizligi” va “texnika xavfsizligi” kabi tushunchalarning mohiyatini yetarlicha anglash uchun dastlab xavfning o‘zi nima, “xavfsizlik” tushunchasi kanday ma’noni anglatadi, xavfsizlikni qanday qilib ta’minalash mumkin kabi savollarga javob topib olish mantiqiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi.

Ayni o‘rinda o‘zbekcha atama va tushunchalarni ta’riflashda “O‘zbek tilining ihozli lug‘ati” asosiy va muhim manba bo‘lib xizmat qilishini aytib o‘tish maqsadga muvofikdir. Mazkur manbada “xavf” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: xavf – bu “biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo‘lishi ehtimolligi, xatar”¹⁹. Internet manbalaridan birida esa mazkur tushunchaning mazmuni yanada aniq, ravshan bayon etilgan. Unda xavf hodisa, jarayon va obyektlar sifatida namoyon bo‘lib, inson salomatligiga salbiy ta’sir etishi aytiladi. YA’ni, xavf - bu hodisa, jarayon va obyektlar bo‘lib, ular ma’lum sharoitlarda inson salomatligiga bevosita va to‘g‘ridan to‘g‘ri zarar yetkazadi²⁰.

E’tibor qilinsa, mazkur o‘rinda xavf:

- 1) xavfning hodisa, jarayon va obyekt ekanligi;
- 2) ular ta’sirining muayyan (anik) vaziyatlarda kuzatilishi;
- 3) inson salomatligiga ta’siri;

4) mazkur ta’sirning bevosita va to‘g‘ridan to‘g‘ri zarar yetkazishi kabi holatlarga alohida urg‘u berilgan. Agarda pedagogika va psixologiya aynan shaxs kamoloti va inson ruhiyatini o‘rganuvchi sohalar ekanligi nazarda tutilsa, u holda Internet manbasida keltirilgan ta’rif muallifni to‘la qoniqtiradi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “xavfsizlik” tushunchasi quyidagicha

¹⁹ “O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tartibot - Shukr /5 jildli. To‘rtinchi jild. Toshkent: "O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 372-bet.

²⁰ <http://ru.wikipedia.org/wiki>.

ta’riflanadi: xavfsizlik – bu “xavf-xatarning yo‘qligi, xavf bo‘lman holat”²¹. V.M.Zaplatinskiy “xavfsizlik” tushunchasini umumiy hamda ijtimoiy subyektga taalluqligi nuqtayi nazaridan ta’riflashga urinadi. Chunonchi, uning fikriga ko‘ra umumiy ma’noda "xavfsizlik" tushunchasi quyidagi mazmunni anglatadi: xavfsizlik – murakkab tizimning shunday holatiki, unga ko‘ra ichki va tashki omillar harakati tizimning yomonlashuviga olib kelmaydi yoki uning ishdan chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi, rivojlanishiga to‘sinq bo‘lmaydi²². Muallifning qayd etishicha, shaxs (inson) xavfsizligi – uning shunday holati bo‘lib, ichki va tashqi omillarning harakati o‘limga, umumiy holda organizm va ongning ishlashi, ruhiyat va rivojlanishining yomonlashuviga olib kelmaydi, shuningdek, insonga ma’lum istak va maqsadlariga erishishga to‘sinq qilmaydi²³. B.Sirliboyevaning yondashuviga ko‘ra esa, shaxs xavfsizligi – bu “turli ko‘rinishdagi xavf ta’siridan muhofazalanish hissiga ega bo‘lish demakdir”²⁴.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shaxsning ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga munosabati nuqtayi nazardan “xavfsizlik” tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin: xavfsizlik – bu shaxsning salbiy ichki hamda tashqi omillardan biologik (shaxsiy salomatlikni saqlash uchun amaliy harakatlarni tashkil etish), ijtimoiy (salbiy ijtimoiy omillarga keskin munosabat bildirish, ularga qarshi tura olish), ruhiy (asab tizimini mustahkamlash, har qanday holatga ta’sirlanaverishdan saqlanish) muhofazalanishini anglatadi.

Umumiy o‘rtalim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xavfsizlik qoidlari bilan tanishtirish ularning hayotlarini muhofaza qilish, shuningdek, mehnat, jismoniy tarbiya hamda “Kompyuter saboqlari” darslarida texnik ko‘rsatmalarga qat’iy rioya qilishga o‘rgatib borishni anglatadi. Maktab amaliyoti bilan tanishish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotlariga xavf quyidagi sharoitlarda yuzaga

²¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tartibot - Shukr / 5 jildli. To‘rtinchchi jild. – Toshkent: O‘zbekistan milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 372-bet.

²² Заплатинский В. Терминология науки о безопасности // Zbornik prispevkov zedzinardonnej vedeckej konferencie “Bezhecnostna veda a bezpecnostne vzdelanie”. – Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006. – C. 4.

²³ O‘sha manba. – 4-бет.

²⁴ Сирлибоева Б. Усмир-ўкувчиларда ахборот хавфсизлиги кўникмаларини шакллантириш. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 20P.-20-bet.

kelishi mumkinligini ko'rsatdi:

mehnat ta'limini tashkil etish jarayonida;
jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida;
"Kompyuter saboqlari" darslarida;
yo'llarda, transportlarda harakatlanish vaqtlarida.

Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotlarining xavfsizligini ta'minlash borasidagi amaliy pedagogik harakatlar jismoniy tarbiya hamda mehnat darslarida, shuningdek, ularni yo'lda to'g'ri yurishga o'rgatish (yo'l harakati qoidalari bilan tanishtirish) maqsadida ta'lim jarayonida, sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtirilayotgan mashg'ulotlar davrida tashkil etiladi.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarni shaxslararo munosabatlar negizi tashkil etuvchi ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda katta imkoniyatlarga ega. Bu yerda o'quvchilar bosqichma-bosqich ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirib boriladilar. "O'qish", "Odobnoma", "Atrofimizdagi olam" va "Konstitutsiya alifbosi" kabi o'quv fanlari o'quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishga yordam beradi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlar targibotini izchil tashkil etilishini ta'minlaydi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targibotini yorituvchi tadbirlarni kiritish zarurligini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida "O'quvchilar qoidasi", salomlashish va so'zlashish odobi, to'g'ri ovqatlanish tartibi, kiyinish madaniyati, jamoa joylarida o'zni tutish, harakat xavfsizligi va jamoa transportidan foydalanish kridalari, madaniy muassasalar – kinoteatr, muzey va istirohat boglarida bo'lish qoidalari, yong'in hamda texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishadilar. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishida boshlang'ich sinf o'qituvchilari alohida o'rin tutadilar. Ularning mashg'ulot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda o'tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishni shakllantiradi. O'quvchilarining hayotlari,

sog‘liqlarini muhofaza qilish uchun ularni hayot va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishga boshlang‘ich sinflarda ham jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi. Nazariy o‘rganish va maktab amaliyoti bilan yaqindan tanishish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotlariga xavf mehnat ta’limini tashkil etish jarayonida, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida, “Kompyuter saboqlari” darslarida, yo‘llarda va transportlarda harakatlanayotganlarida yuzaga kelishi aniqlandi.

IJTIMOIY VA HUQUQIY ME’YORLAR, ULARNING TURLARI VA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MOHIYATI

Shaxs hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida kechadi. Jamiyat a’zolari o‘rtasidagi shaxslararo aloqalarning samarali kechishi kechirishi bevosita shaxsning ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bog‘liq. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni esa o‘z navbatida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning aniqlanganligi, jamiyat tomonidan qay darajada tan olinganligi hamda amaliy faoliyatda ularga rioya etilayotganligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-huquqiy me’yorlar aynan shaxslararo munosabatlar negizi, unda aks etuvchi xususiyatlarga muvofiq shakllantiriladi. Garchi shunday bo‘lsa-da, biroq hamisha ham ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning mohiyati jamiyat a’zolari tomonidan birdek anglanmaydi. Kuzatishlarga ko‘ra ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning mohiyati ko‘p hollarda huquqiy yo‘nalish bo‘yicha maxsus ma’lumotga ega, aynan sud-huquq, soliq, bojxona yoki ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan shaxslar tomonidangina muayyan darajada anglanishi mumkin. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq fuqarolik jamiyatini barpo etish ijtimoiy maqsad etib belgilanganligi inobatga olinsa, ijtimoiy-huquqiy me’yorlar, ularning mazmunidan barcha fuqarolar birdek xabardor bo‘lishlari kerakligining dolzarbliyi yanada ortadi.

Shu bois fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning mohiyati bilan tanishtirish, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarning izchil berib borilishiga erishish jamiyat miqyosida hal qilinishi shart bo‘lgan vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifaning ijobiy hal

qilinishida tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega subyektlar qatorida ta'lim muassasalari ham alohida o'rin tutadi.

Ta'lim muassasalari eng oddiy, shuningdek, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish, inson huquqlarini muhofaza qilish darajasida aks etadigan ijtimoiy-huquqiy me'yorlardan o'quvchilarni xabardor qilish, ularning ahamiyati, rioya etish zaruriyatini anglatish imkoniyatiga ega. Mavjud imkoniyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mazmuni bilan bosqichma-bosqich tanishtirib borilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ham tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirib borish imkoniyati mavjud. Bunda tarbiyalanuvchilarga beriladigan ma'lumotlar ularning kundalik hayotlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar, shaxslararo o'zaro muloqotga asoslanishi 1 ozim. YA'ni tarbiyalanuvchilarning ota-onalar, oila a'zolari, ular mansub bo'lgan mikromuhitdagi subyektlar va tarbiyachilar bilan munosabatlari bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar misolida ochib beriladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar e'tiborini ular tomonidan tashkil etilayotgan xatti-harakatlarining salbiy yoki ijobiy mazmunga egaligini ochib berish (nima yaxshi-yu, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu, qaysi harakatlar noto'g'rilibini ko'rsatish)ga tortish asosida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini ochib beradi.

Umumiyl o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda alohida o'rin tutadi. Muassasada pedagogik-psixologik, shuningdek, umumiyl ijtimoiy bilimlarni maxsus o'zlashtirgan mutaxassislar – o'qituvchilarning faoliyat yuritishlari o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini to'g'ri anglash, ularning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy ahamiyatini tushunish, shuningdek, mazkur me'yorlarga kundalik faoliyatda rioya etish ko'nikmalarining izchil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilari ijtimoiy va huquqiy me'yorlar, ularning mazmuni to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zlashtiradilar. Biroq, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar hayotida o'ziga xos davr sanaladi. Bola o'zining jismoniy

va ruhiy kamolotiga ko‘ra ta’lim olishga to‘la tayyor bo‘ladi. Asosiy hayot tarzi sifatida o‘yin faoliyati o‘rnini o‘qish faoliyati egallaydi. O‘qish faoliyati o‘quvchilarining ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli ta’sir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi o‘quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me’yorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi.

Bilishga nisbatan ham hissiy yondashish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ularni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishda berilayotgan ma’lumotlarni qiziqarli tarzda bayon etish, imkon qadar hayotiy misollar yordamida obrazli talqin qilish ijobiy natijalarga qo‘lga kirishga yordam beradi. His-tuyg‘ularini ifodalashga qo‘zg‘aluvchanlik xosligi, shu bilan birga tengdoshlariga taqlid qilishning kuchliligi bois ijtimoiy hamda huquqiy me’yorlarga amal qilish yoki amal qilmaslik holatlarini ular xatti-harakatlari, xulq-atvori, odatlariga misolida yoritish orqali tasavvurlarining yetarli bo‘lishi erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlashlarida ham obrazlilik ustun bo‘lganligi sababli ular o‘qituvchi tomonidan berilayotgan tushunchalarning ma’nosidan ko‘ra obraqi (shakli yoki tasviri)ga e’tiborni qaratadilar. Bu esa o‘z-o‘zidan ijtimoiy-huquqiy me’yorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rgazmali vositalar yordamida yetkazish berish zarurligini anglatadi. O‘qituvchi nutqining obrazliligi, hissiyotga boyligi va ma’lumotlarning qiziqarli ekanligi o‘quvchilarining bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini tarbiyalash o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning muhim tarkibiy qismidir. O‘quv ishlari tarkibida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning o‘rganilishi majburiylik kasb etadi. Bu majburiylik 1-4-sinflarda o‘quv fani sifatida “Konstitutsiya alibosi” predmetini o‘qitish yo‘lga qo‘yilganligi bilan izohlanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan “O‘qish”, “Odobnama” va “Atrofimizdagি olam” kabi o‘quv fanlari negizida ham o‘quvchilar ijtimoiy

me'yorlar, qisman esa huquqiy me'yorlar mohiyati bilan tanishib boradilar.

Ta'lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning muhim tarkibiy yo'nalishi bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar "xilma-xil faoliyat turlari majmuidan iborat bo'ladi va bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega"²⁵. Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ijtimoiy dolzarblik kasb etayotgan, pedagogik ahamiyatli masalalar, o'quvchilarning qiziqishlari, ta'lim pedagogik jamoasi oldida turgan vazifalar negizida ishlab chiqilgan reja asosida tashkil etiladi. Ana shu jihatga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga doir bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida targ'ib etuvchi tadbirlarni kiritish imkoniyati mavjud.

Falsafiy, sotsiologik va huquqiy manbalarda qayd etilishicha, "odamlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiyl xulq-atvor qoidalari" bo'lgan ijtimoiy normalar "inson – inson" munosabatlarini tartibga soladi²⁶. Ayrim manbalarda esa ijtimoiy me'yorlari "xulq-atvor qoidalari" bo'lish bilan birga "faoliyat standartlari"²⁷ ham ekanligiga urg'u beriladi.

Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari oilada, ta'lim muassasasida hamda o'zлari mansub bo'lgan mikro guruhlarda ota-onalar, oilaning barcha a'zolari, sinfdoshlari va tengdoshlari bilan tashkil etadigan munosabatlarda muayyan qoidalarga amal qilishlari lozim. O'quvchilarning ijtimoiy subyektlar bilan munosabatlarda aynan qanday xulq-atvor qoidalariiga amal qilishlari zarurligini anglash uchun ijtimoiy me'yorlarning turlaridan xabardor bo'lish talab qilinadi.

Mavjud manbalarda ijtimoiy me'yorlarning quyidagi turlar bo'yicha guruhlanishi aytildi:

- 1) axloqiy me'yorlar;
- 2) jamoat birlashmalarining me'yorlari;
- 3) milliy urf-odatlar;
- 4) turli xalqlarga xos odatlari;

²⁵ Mavlonova R., To'rayeva., Xoliqberdiyev. Pedagogika / Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 453-бет.

²⁶ Сайдов А., Таджиханов У., Одилкориев Х. Давлат ва хуқуқ асослари / Дарслик. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2002. – 31-бет.

- 5) an'ana me'yorlar;
- 6) siyosiy faoliyat me'yorlari;
- 7) huquq me'yorlari;
- 8) diniy me'yorlar²⁸.

Ijtimoiy me'yorlarning bu tarzida guruhlanishi ba'zi mulohazalarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ya'ni:

1. Ayni o'rinda ijtimoiy me'yorlarning yuqoridagi tartibda guruhlanishida muayyan xatolarga yo'l qo'yilganligini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Zero, "turli xalqlarga xos odatlar" aynan "milliy urf-odatlar"ning o'zidir. Chunki, lotin tilida "uzatish"²⁹, arab tilidan tarjima qilinganda "nasldan naslga o'tuvchi qoida" esa ma'nolarini anglatuvchi "an'ana" tushunchasi bevosita "hayotda qaror topgan (topayotgan) udum, urf-odat va boshqa amallar³⁰ni yoritadi.

2. Qolaversa, ijtimoiy me'yorlarning turlaridan biri sifatida mazkur o'rinda keltirilgan "an'ana me'yorlari" iborasini mazmunan aniqlashtirish talab etiladi. Ma'lumki, an'analar o'z mohiyatiga ko'ra muayyan jamiyatga, xalqqa yoki ijtimoiy guruh (oila, jamoa, birlashma)ga taalluqli bo'ladi. Agarda mualliflar "an'ana me'yorlari" iborasi qaysi subyektga tegishli ekanligini ko'rsatganlarida hech qanday tushunmovchilik yuzaga kelmagan bo'lardi. Bordi-yu, an'ana me'yorlari ma'lum xalqqa nisbatan qo'llanganilgan bo'lsa, u ham shak-shubhasiz milliy urf-odatlar mohiyatini ifodalaydi. Zero, "an'analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va sayqallanadi. Davr talabiga javob bergen an'analar unutilmaydi, avlodlarga meros bo'lib qoladi, xalq hayotining tarkibiy qismiga aylanadi. Har bir el, millat yoki xalq o'z an'analarini rivojlantiradi, asrab-avaylaydi. An'analarda xalq dahosi, turmush tarzi, madaniy kamolot darajasi aks etadi"³¹.

²⁷ <http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl>.

²⁸ Сайдов А., Таджиханов У., Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари / Дарслик. Т: "Шарқ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2002. – 31-bet.

²⁹ Falsafa. Qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 36-bet.


³⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. A – D / 5 jildli. Birinchi jild. A.Matvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 89-bet.

³¹ Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at. Т: "Sharq" nashriyot-matbaa акциядорлик компанияси Баш таҳририяти, 2006. – 35-бет.


3. Ijtimoiy me'yorlar turlarini ifodalovchi guruhni: estetik me'yorlar; tashkiliy me'yorlar; faoliyatni tashkil etishga madaniy yondashuv me'yorlari kabi tushunchalar bilan yanada boyitish zarur.

Bizning nazarimizda, bildirilgan fikr mulohazalarga tayangan holda, shuningdek, pedagogik nuqtayi nazardan ijtimoiy me'yorlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir (3-rasm).

O'rganilayotgan mavzu mohiyatidan kelib chiqqib, yuqorida keltirilgan guruhdan boshlang'ich sinf o'quvchilarning kundalik turmush tarzi uchun o'rganilishi muhim bo'lgan ijtimoiy me'yorlarni ajratib olish taqozo etiladi. Mazkur yosh o'quvchilari bilish qobiliyatları, dunyoqarashlari va tafakkurlari darajasiga ko'ra ularning quyidagi ijtimoiy me'yorlar bilan tanishtirish pedagogik zaruriyat degan xulosaga kelindi (4-rasm).



3-rasm. Ijtimoiy me'yorlarning asosiy turlari



4-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kundalik faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar

Xo‘sish, yuqorida ko‘rsatilgan ijtimoiy me’yorlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kundalik faoliyatlarida qanday ahamiyat kasb etadi. Quyida ana shular haqida qisqacha so‘z yuritiladi?

Axloqiy me’yorlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan ijtimoiy munosabatlarning axloqiy mohitini tushuna olishlarini ta’minlash, ularda axloqiy tushunchalarni hosil qilish, muomalasi, xulq-atvor va xatti-harakatlarida odob-axloq talablariga rioya etish odatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur yosh o‘quvchilarining axloqiy me’yorlar mohiyatini tushunishlari va ana shu talablarga muvofiq muomala hamda xatti-harakatlarni tashkil eta olishlari natijasida ularda barcha ijtimoiy voqeа-hodisalar “yaxshi”, “yomon”, “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri”, “mumkin” va “mumkin emas” tarzida baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Milliy urf-odat va an’ana me’yorlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni milliy (o‘zbekona) turmush tarzi ruhida tarbiyalash, ularda milliy tarix, madaniyat hamda qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otishga yordam beradi. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida milliy urf-odat va an’ana me’yorlari asosida tarbiyalash ularni hayotiy faoliyat jarayonida oila a’zolari,

qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilar va tengdoshlari bilan o‘zaro hamjihatlikda yashash, mehnat qilishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini **huquqiy me’yorlar** mohiyati bilan tanishish orqali ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, ularning mo‘tadil tashkil etilishidagi ahamiyatini anglaydilar, qonunlar shaxs erkinligini cheragalash uchun emas, balki, har bir fuqaro manfaatini himoya qilish, hayoti, salomatligi, huquqlari va mol-mulkini muhofalashda, shuningdek, huquqbuzarlik holatlari sodir etilishining oldini olish, ularga qarshi kurashishda muhim omil ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Qolaversa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini huquqiy va axloqiy me’yorlar bilan izchil tanishtirib borish ularda ijtimoiy munosabatlar mazmunini ijobiy xususiyat kasb etishi, buning natijasida esa jamiyatning barcha ijtimoiy sohalar bo‘yicha rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdagi rolini yuqori baholay olishlarini kafolatlaydi.

Estetik me’yorlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy voqeа va hodisalarni estetik baholash, shaxsiy va umumxalq mulkining estetik qiymatini anglash, muomala, yurish-turish, kiyinish, xatti-harakatlarni tashkil etishda estetik talablarga rioya qilish, tabiat va atrof-muhit go‘zalligini asrash, har qanday ko‘rinishdagi estetik didsizlikka murosasiz bo‘lish ruhida tarbiyalanishlariga yordam beradi.

Faoliyatni tashkil etishga madaniy yondashuv me’yorlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tomonidan ma’lum funksiyalarni bajarish (masalan, ovqatlanish, jamoa transportidan foydalanish, ko‘ngilli dam olishni tashkil etishga xizmat qiladigan madaniy muassasalar (jumladan, muzeylar, kinoteatr, konsert zallari va sirk kabilarga) tashrif buyurish davri)da o‘zini tuta olish, boshqarish va xatti-harakatlarini baholashga o‘rgatadi.

Diniy me’yorlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy diniy e’tiqod ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Hadislar, ularning ma’naviy-axloqiy mohiyatini anglash orqali o‘quvchilar atrof-muhit va tabiatga ijobiy munosabatda bo‘lish, tabiiy-moddiy ne’matlarni asrash, ularning mavjudligi uchun minnatdor bo‘lish, ijtimoiy xulq-atvor va xatti-harakatlarni savob va gunoh mezonlari asosida baholash ko‘nikmalarini

o‘zlashtiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining **bolalar jamoasi faoliyatini tartibga soluvchi me’yorlar** bilan tanishishlari ularda jamoaviylik, o‘zaro yordam, jamoadoshlar tomonidan bir-birini qo‘llab-quvvatlash, muayyan ijtimoiy faoliyat (masalan, o‘yin, o‘qish va mehnat)ni birgalikda tashkil etish malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning muayyan tartib-qoidalarga rioya qilishlari talab etiladi. O‘quvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan mazkur tartib-qoidalari ijtimoiy-huquqiy me’yorlar o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Ta’lim muassasada o‘quvchilar hulq-atvori, xatti-harakatlari va ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan bo‘ladigan munosabatlariga qo‘yiladigan ijtimoiy-huquqiy talablar “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining faoliyati to‘g‘risida”gi Nizom hamda “O‘quvchilar qoidasi”da o‘z ifodasini topadi. O‘quvchilarning ta’lim muassasalaridagi faoliyatlarini mazmuni bevosita “O‘quvchilar qoidasi”da o‘z ifodasini topadi. Mazkur me’yoriy hujjat O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” hamda “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining faoliyati to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi. Ayni vaqtda respublika umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida yagona “O‘quvchilar qoidasi” talablari bo‘yicha faoliyat olib borilmoqda. Shu bilan birga har bir ta’lim muassasasi o‘z ehtiyojlari, ota-onalar va o‘quvchilarning talablarini inobatga olgan holda “O‘quvchilar qoidasi”ga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

“O‘quvchilar qoidasi” o‘zida o‘quvchilarning ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan barcha faoliyatlarini qamrab oladi. Shunga ko‘ra mazkur hujjat quyidagi bo‘limlar asosida shakllantiriladi:

1. O‘quvchilar zimmasidagi majburiyatlarni ifodalovchi umumiy qoidalar.
2. O‘quvchilar tomonidan sodir etilishi ta’qiqlanadigan harakatlar.
3. O‘quvchining tashqi qiyofasiga qo‘yiladigan talablar.
4. O‘quvchilarning maktabga qatnashlariga qo‘yiladigan talablar.
5. O‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroklariga qo‘yiladigan talablar.
6. O‘quvchilar tomonidan o‘quv vositalarining saqlanishiga qo‘yiladigan

talablar.

Ta’lim muassasasida ishlab chiqilib, tasdiqlanadigan “O‘quvchilar qoidasi”ning qanday bo‘limlardan iborat bo‘lishi ixtiyoriy tanlanadi. Shu sababli ba’zan unda o‘quvchilarning faoliyati mashg‘ulotlar, tanaffuslar hamda darslar tugagandan keyingi muddatlar bo‘yicha alohida-alohida ko‘rsatiladi. Bu holatda “O‘quvchilar qoidasi”ning tarkibiy tuzilmasi quyidagi ko‘rnishga ega bo‘ladi:

1. Umumiy qoidalar.
2. O‘quvchilarning darslardagi ishtirokiga qo‘yiladigan talablar.
3. O‘quvchilarning tanaffuslardagi hulq-atvori va xatti-harakatlariga qo‘yiladigan talablar.
4. O‘quvchilarning mashg‘ulotlar tugagandan keyingi hulq-atvori va xatti-harakatlariga qo‘yiladigan talablar.

Ayrim holatlarda maktab pedagogik jamoasi, ota-onalar hamda o‘quvchilarning talab-istiklarini inobatga olgan holda “O‘quvchilar qoidasi”da qo‘simecha bo‘limlar ham aks etishi mumkin. Masalan, bugungi kunda mobil telefonlardan foydalanish ommalashganligi bois ta’lim muassasalarida ulardan foydalanish bo‘yicha qoidalar ishlab chiqilishi hamda “O‘quvchilar qoidasi” bo‘limlari tarkibiga “Mobil telefonlardan foydalanish qoidalari” bo‘limi sifatida kiritish mumkin. Yoki o‘quvchilarni ta’lim muassasasi oshxonasida ham tartibning saqlanishini ta’minalash maqsadida “O‘quvchilar qoidasi”da “O‘quvchilarning ta’lim muassasasi oshxonasidagi hulq-atvoriga qo‘yiladigan talablar” ham aks etishi mumkin.

Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish joiz, umumiy o‘rtalama ta’lim muassasalarida ixtiyoriy ravishda “O‘quvchilar qoidasi” o‘rniga “O‘quvchilar uchun eslatmalar” (“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eslatmalar”) ishlab chiqilishi mumkin. Qanday nomlanishidan qat’iy nazar mazkur hujjatlar mazmuni o‘quvchilarning ta’lim muassasalaridagi hulq-atvori va xatti-harakatlari mohiyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Noxush hodisalar kelib chiqishining oldini olish yo’llaridan biri -bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jamoat joylari (kino, teatr, umumiy ovqatlanish va jamoa transporti)da amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar to‘g‘risida

ma'lumotlar berish, ularda mazkur me'yorlarga qat'iy rioda qilish ko'nikmalarini shakllantirish sanaladi. Ayni o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi ma'lumotlarni berish ularda madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy va huquqiy me'yorlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy xulq-atvor, muomala, munosabat va faoliyat asoslari to'g'risidagi tushunchalarni hosil bo'lishini ta'minlaydi. Ularning mazmunini o'zlashtirish natijasida o'quvchilar jamiyatda qanday yashash kerakligi, atrofdagilar bilan munosabatni qanday tashkil etish lozimligi hamda tabiatga, ijtimoiy subyektlarga, voqeа-hodisalarga nisbatan ijobiy yondashish zarurligini tushunib boradilar. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me'yorlar mohiyati bilan izchil, tizimli va uzlusiz tanishtirib borishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Quyidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongiga singdirilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar to'g'risida so'z yuritiladi.

I. Jamoat joylarida talab etiladigan xatti-harakatlar:

1.1. Kinoteatrлarda:

- kinoteatrlarga tartibli va ozoda kiyingan holda tashrif buyurish;
- seans uchun chipta xarid qilish (chiptani seans boshlanishidan 30-40 daqiqa oldin xarid qilish maqsadga muvofiqdir);
- tomosha zaliga kirishda chiptani nazoratchiga ko'rsatish (nazorat chizig'i chizilmagan chipta qabul qilinmaydi);
- tomosha zaliga seans boshlanishida 15-20 daqiqa avval kirib, chiptada ko'rsatilgan joyni egallash;
- chiptani seans yakunigacha saqlab turish (chiptaning yo'qotilganligi to'g'risidagi shikoyat kinoteatr ma'muriyati tomonidan qabul qilinmaydi);
- kinoteatr muassasasiga tegishli mulkka nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, o'rindiq to'shalmalarini yirtmaslik yoki ularga chizmaslik, shuningdek, kinoteatr hududi, tomosha zali hamda kafelarda tozalik va ozodalikka rioda qilish;
- seans vaqtida mobil telefonlarni o'chirib qo'yish;
- kinoteatr ma'muriyatiga tomoshabinlarga sifatli xizmat ko'rsatilganligi

yuzasidan minnatdorchilik bildirish yoki sifatli xizmat ko‘rsatilmaganligidan shikoyat qilish;

- kinoteatr xodimlari bilan xushmuomala bo‘lish.

1.2. Muzeylarda:

- muzeyga tartibli va ozoda kiyingan holda tashrif buyurish;
- kirishdan avval chipta xarid qilish;
- kirishda chiptani nazoratchiga ko‘rsatish;
- tozalik va ozodalikka rioya qilish;
- muzeyda bo‘lish vaqtida mobil telefonlarni o‘chirib qo‘yish;
- muzey ma’muriyati va xodimlariga ko‘rsatgan yordamlari uchun minnatdorchilik bildirish;
- xodimlar bilan xushmuomala bo‘lish.

1.3. Umumiy ovqatlanish muassasalarida:

- ovqatlanish muassasalariga tartibli va ozoda kiyingan holda tashrif buyurish;
- muassasada xizmat ko‘rsatilishi haqidagi ko‘rsatma bilan batafsil tanishish (o‘z-o‘ziga xizmat yoki maxsus xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilganligidan xabardor bo‘lish);
- menyuni shoshilmasdan ko‘zdan kechirib, xarid uchun taomlarni tanlash;
- ovqatlanish muassasasining xodimlari bilan xushmuomala bo‘lish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik, atrofdagilarga halaqit bermaslik;
- ehtiyojdan ortiqcha yeguliklar xarid qilmaslik;
- ovqatlanish chog‘ida mobil telefonni o‘chirib qo‘yish;
- yeguliklarni, ayniqsa, nonni isrof qilmaslik;
- tozalik va ozodalikka rioya qilish;
- muassasa mulkiga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish;
- muassasa ma’muriyatiga mijozlarga sifatli xizmat ko‘rsatilganligi yuzasidan minnatdorchilik bildirish yoki sifatli xizmat ko‘rsatilmaganligidan shikoyat qilish;
- ovqatlanish muassasasi xodimlari bilan xushmuomala bo‘lish va sifatli ko‘rsatilgan xizmat uchun minnatdorchilik bildirish.

1.4. Jamoa transportida:

- transportga chiqishda shoshilmaslik, boshqa yo'lovchilarni turtmaslik, keksalar, bolali va homilador ayollarga yo'l berish;
- iflos poyafzal yoki kiyimlar bilan transport vositasiga chiqmaslik;
- transportga chiqishda oldingi eshikdan foydalanish (chunki oldingi eshikdan chiqishga bolalar, keksalar hamda bolali yoki homilador ayollarga ruxsat etiladi);
- birinchi bekatga borgunga qadar o'z vaqtida chipta xarid qilish yoki oylik yo'l chiptalarini nazoratchiga ko'rsatish;
- keksalar va bolali hamda homilador ayollarga joy berish;
- imkon qadar yo'lovchilarga halaqit qilmaslik, shovqin solmaslik, radio pleyerdan foydalanmaslik;
- umumxalq mulki bo'lgan transport vositasiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, o'rindiqlar qoplamalarini yirtmaslik, ularga chizmaslik, salonnı iflos qilmaslik (ayniqsa, pista, muzqaymoq, shirinliklarni iste'mol qilmaslik);
- tartib va ozodalikka rioya qilish;
- transport vositasi harakatlanayotganda haydovchini chalg'itmaslik;
- yo'lovchilar, haydovchi va salon nazoratchisi bilan xushmuomala bo'lish;
- transport vositasidan tushishda haydovchi yoki salon nazoratchisiga minnatdorchilik bildirish;
- to'xtab turgan avtobus, yengil mashina, tramvay, mashrutli taksilarning oldidan va trolleybusning orqasidan o'tish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining madaniy xulq-atvorga ega bo'lishlarida ularning jamoat joylari (kino, teatr, umumiyligi ovqatlanish va jamoa transporti)da sodir etish mumkin bo'limgan xatti-harakatlar, aniqrog'i, ta'qiqlar to'g'risidagi ma'lumotlarning puxta o'zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oila va umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoat joylarida sodir etish mumkin bo'limgan xatti-harakatlarga nisbatan qo'yiladigan ta'qiqlardan ham xabardor etish maqsadga muvofiqdir. Ayni o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tiborlarini quyidagi ta'qiqlarga tortish lozim:

II. Jamoat joylari (kino, teatr, umumiyligi ovqatlanish va jamoa transporti)da muayyan xatti-harakatlarni tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan ta'qiqlar:

2.1. Kinoteatrarda:

- kinoteatrga iflos kiyim-bosh yoki poyafzal bilan kelish;
- tomosha zaliga chiptasiz kirish;
- kinoteatr hududida video va foto apparatlarda surat olish;
- kinoteatrga hayvonlarni olib kirish;
- seans vaqtida mobil telefondan foydalanish (seans vaqtida mobil telefonlarni o‘chirib qo‘yish talab etiladi);
 - tomosha zaliga pista, muzqaymoq, shokolad, Koka-kola, chips, bodroq kabi yegulik va ichimliklarni olib kirish;
 - tomosha vaqtida shovqin solish, ovqatlanish;
 - tomosha zaliga katta hajmdagi sumka, portfel, chemodan, fotoapparat, videokamera, pleyerlar, magnitafon, audioyoziuv vositalarini olib kirish (ularni garderobga topshirish lozim);
 - chiptada ko‘rsatilgan joydan boshqasiga o‘tirish;
 - shovqin solish, yonidagilar bilan baland ovozda gaplashish;
 - kinoteatr hududi, kafe hamda tomosha zalini ifloslantirish yoki turli buyumlar (saqichlar, plastik yoki shisha idishlar, oziq-ovqat qoldiqlari)ni tashlash;
 - kinoteatr hududi, kafe yoki tomosha zaliga chetdan turli yegulik va ichimliklarni olib kelish;
 - tungi seanslar uchun bilet sotib olmaslik.

2.2. Muzeylarda:

- muzeyga iflos kiyim-bosh va poyafzallar bilan kelmaslik;
- muzeyga turli yegulik va ichimliklarni olib kirish;
- muzeyda mobil telefondan foydanmaslik;
- muzeydagи buyumlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, ularni qo‘l bilan ushlab ko‘rmaslik;
- shovqin ko‘tarish, sheriklar bilan baland ovozda suhbatlashish, kulish;
- zaldan zalga va qavatdan qavatga o‘tishda yugirmaslik.

2.3. Umumiy ovqatlanish muassasalarida:

- muassasaga iflos kiyim-bosh yoki poyafzal bilan kirish;

- ovqatlanish muassasasiga hayvonlarni olib kirish;
- ovqatlanish chog‘ida mobil telefondan foydalanish;
- shovqin solish, yonidagilar bilan baland ovozda gaplashish;
- muassasa mulkiga ziyon yetkazish;
- muassasani ifloslantirish.

2.4. Jamoa transportlarida:

- chiptasiz yurish, o‘z vaqtida chipta sotib olmaslik yoki oylik yo‘l chiptasini salon nazoratchisiga ko‘rsatmaslik;
- boshqa yo‘lovchilarga halaqit berish, ularni turtish;
- shovqin solish, sheriklar bilan baland ovozda gaplashish;
- transport salonini ifloslantirish, unga turli buyumlar (oziq-ovqat qoldiklari, qog‘oz va sellofan g‘iloflar, shisha va plastik idishlar va boshqalar)ni tashlash;
- transport vositasiga ziyon yetkazish (o‘rindiq qoplamlarini yirtish, o‘rindiqlarga chizish yoki yozish, qo‘l tutgichlarni yulib hamda turli kichik mexanizmlarni bo‘shatib olish va hokazolar);
- transport salonida baland ovozda mobil telefonida suhbatlashish (aksariyat transportlarda mobil telefonlarni o‘chirib qo‘yish zarurligi to‘g‘risidagi ogohlantiruvchi ko‘rsatma mavjud).

Nazariy o‘rganish mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangilangan ta’lim samaradorligini oshirish yo‘lida amaliy ishlar olib borilganligini tasdiqladi. Ana shunday ilmiy izlanishlardan biri I.Uzoqov tomonidan “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish” mavzusida amalga oshirilgan tadqiqotdir. Zero, mas’ulyatli bo‘lish shaxs tomonidan ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga nisbatan bildirilayotgan yondashuvning ham muhim jihatni sifatida namoyon bo‘ladi. Muallifning e’tirof etishicha, mas’uliyat shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda, shuningdek, ma’lum guruh yoki shu guruh a’zolari oldidagi burchni to‘la anglagan holda javobgarlikni his etish bo‘lib, shu nuqtayi nazardan u quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: ma’lum xatti-harakatni amalga oshirishdagi mas’uliyat; muayyan kasbiy faoliyatni bajarish bo‘yicha shaxs zimmasidagi mas’uliyat; ma’lum guruh yoki uning a’zolari bo‘lgan

kishilar oldidagi mas’uliyat; jamiyat fukarosining ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishdagi mas’uliyati³².

H.B.Aliqulovaning tadqiqot ishi esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiyadolat tushunchalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor o‘quvchilarga ijtimoiyadolat tushunchalarini singdirishda turli-tuman tarbiyaviytadbirlar, jumladan, “Qonun hammamiz uchun majburiydir”, “Davlat, qonun va biz”, “Burch va vijdon”, “Qonun va odamlar”, “Qonun ustuvorligi – fuqarolar erkinligi” va boshqa mavzularda suhbatlar, kechalar, munozaralar uyushtirish, huquq-tartibot muassasalari hamda harbiy bo‘linmalar bilan doimiy aloqalarni tashkil etish, ular yordamida “Yosh posbonlar”, “Yosh militsiya do‘stlari” guruhlarini tuzish kabilardan ham keng foydalanishga qaratiladi³³.

Zamonaviy sharoitda axborotlarni yetkazib berishda Internet xalqaro aloqa tarmog‘i yetakchi o‘rin tutmokda. Mazkur tarmoq saytlarida joylashtirilgan materiallar bilan tanishish natijasida unda maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarni ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishga doyr ma’lumotlarning ko‘pligiga guvoh bo‘lindi. Ana shunday materiallardan biri bu Tatyana Lavrenova tomonidan yaratilgan “Kichkintoylar uchun yo‘l harakati qoidalari” (“Правила дорожного движения для малишней”)³⁴ nomli uyin-mashg‘ulot sanaladi. Mazkur uyin-mashg‘ulotda kichik yoshdagi bolalar asosiy qahramon Svetofor Svetoforovich Svetoforov boshchiligidagi yo‘llarda to‘g‘ri harakatlanish qoidalari o‘rganadilar. O‘yin-mashg‘ulot quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1-bosqich. Nazariy ma’lumotlarni berish (bu o‘rinda yo‘l belgilarining turlari va ularning mohiyati bayon etiladi).

2-bosqich. Amaliy harakatlarni bajarish (bu bosqichda bolalar “mashina”lar rolida yo‘llarda amaliy harakatlanish borasidagi ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar).

3-bosqich. “Yo‘l belgilarini jonlantiramiz” o‘yini (o‘yin jarayonida bolalar turli

³² Uzoqov I. A. Boshlangich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz... diss. - Toshkent: 2008. – 21-bet.

³³ Aliqulova H.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiyadolat tushunchalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fanl.nomz... diss. – Toshkent: 2008. – 28-bet.

tasvirlar tushirilgan rasmlar namoyish etiladi, o‘yin ishtirokchilari esa rasmlarda ифодаланган ҳолатни амалий тарзда намойиш қиласидилар).

1. 4-bosqich. “Orzuimdagи avtomobil” suratini chizish (ushbu jarayonda bolalar va ularning ota-onalari birgalikda o‘zlari tasavvur qiladigan eng yaxshi avtomashinalarning tasviriy ifodasini yaratadilar).
2. 5-bosqich. “Yangi yo‘l belgisilarini yaratish” o‘yini (o‘yin chogida bolalar ota-onalarining yordamlarida yangi yo‘l belgilarini yaratadilar. Yangi yo‘l belgilar o‘yin ishtirokchilari bo‘lgan bolalar va ota-onalar tasavvurlari, xayolot dunyosining kengligi asosida yaratiladi. Ular qanday xayol qilasalar, yangi yo‘l belgilari shunday shakllanadi).
3. 6-bosqich. “Shahar ko‘chalarida to‘g‘ri harakatlanish” nomli stol o‘yini (o‘yin vaqtida bolalar aralashtirilib yuborilgan kartochkalar ichidan biror belgini tanlab, so‘ngra ana shu belgining ikkinchisi (jufti)ni topishadi).
4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yo‘llar va ko‘chalarda to‘g‘ri harakatlanishga o‘rgatadigan adabiyotlardan orasida A.Usachyovning “Yo‘l harakati qoidalari. Bo‘lajak haydovchilar va ularning ota-onalari uchun” (“Pravila dorognogo dvijeniya. Dlya budushix voditeley i ix roditeley”) nomli asari o‘zining amaliy qiymati bilan ajralib turadi. Asarda yo‘l harakati qoidalaring mazmuni rangli rasmlar yordamida ochib berilgan. Rasmlarning yorqin rangda ekanligi, yo‘l harakati qoidalaring kichik yoshdagi bolalar psixologik va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kisqa, aniq va ravshan bayon etilganligi bu boradagi talablarning ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishiga yordam beradi.
5. Mazkur asar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:
6. Kirish so‘zi.
7. Yo‘ldan o‘tish qoidalari.
8. Yo‘lovchilar uchun qoidalari.
9. Haydovchilar uchun qoidalari.
10. Velosipedchilar va moped haydovchilar uchun qoidalari.
11. Yo‘l belgilari.

³⁴ <http://www.7ya.ru>.

12. Bolalarga o‘n olti yoshgacha ruxsat etiladi.
13. Xayoliy yo‘llarda.
14. Barcha avtomobil haydovchilar uchun maslahatlar.
15. To‘g‘ri javoblar³⁵.

Barcha, shu jumladan, kichik maktab yoshidagi bolalarga yo‘llarda to‘g‘ri harakatlanish qoidalari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalardan yana biri bu – “O‘quvchilar uchun yo‘l harakati qoidalari. Testlar” (“Правила дорожного движения для учащихся. Тесты”)³⁶ nomli multimedya qo‘llanmasi sanaladi. Mazkur multimedya qo‘llanmasi Rossiya Federeratsiyasining turli mintaqalarida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan. Elektron qo‘llanmadan bugungi kunda MDH mamlakatlarining ta’lim tizimida ham samarali foydalanib kelinmokda. Qo‘llanma uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan dastur RFda “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda eng zarur dastur” nominatsiyasi bo‘yicha XII Vizual san’at Butunrossiya festivalining diplomi bilan takdirlangan. Dastur o‘z ichiga 16 ta turli mavzular bo‘yicha har biri beshta savoldan iborat bo‘lgan 46 ta testni qamrab olgan.

Test topshiriqlari faqatgina nazariy savollardan iborat bo‘lmay, shu bilan birga aniq yo‘l hodisalari va ularning mohiyatini yorituvchi amaliy topshiriqlardan ham iborat. Dastur o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yo‘l harakati qoidalariiga doir bilimlarni mustahkamlabgina qolmay, shu bilan birga o‘zlashtirilgan materialni mustahkamlashga ham yordam beradi.

Yo‘l harakati bo‘yicha berilgan mashqlar o‘quvchilarning yo‘l harakatlarini tashkil etish jarayonida ma’lumotli ishtirokchilar bo‘lishlari uchun xizmat qiladi va ularni qiyin vaziyatlarda maqbul yo‘llarni topishga o‘rgatadi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘zlarini transport vositalari bilan bog‘liq ko‘plab muammo hamda xavflardan himoya qila olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradilar.

Dasturning amaliy qiymati shundaki, mashg‘ulotlarning uyda hamda maktabda birdek samarali tashkil etilishi uchun mo‘ljallangan. Testlar Moskva shahar yo‘l

³⁵ Усачёв А. Правила дорожного движения. Для будущих водителей и их родителей (для младшего и среднего школьного возраста). – Москва: Школьная библиотека, 2006. – 62 с.

³⁶ <http://www.propaganda>.

harakati xavfsizligi davlat nazorati va Moskva ochiq ta’lim institutining “Xavfsizlik” kafedrasi xodimlari bilan hamkorlikda yaratilgan. Dastur u mumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan.

Elektron dastur va qo‘llanma mavzular bo‘yicha quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

1. Ko‘chalar hamda aholi istiqomat joylarida harakatlanish.
2. Yo‘l belgilari va qo‘sishimcha axborot vositalari.
3. “Yo‘l harakati qoidalari”ning tayanch tushuncha va atamalari.
4. Piyodalarning majburiyatlari.
5. Ko‘cha va yo‘llarning tarkibiy qismlari.
6. Chorrahalarini kesib o‘tish.
7. Svetofor va uning signallari.
8. Yo‘l ko‘rsatuvchining signal va ko‘rsatmalarini.
9. O‘tish yo‘lkalari.
10. Transport vositalari harakatidagi ustunliklar.
11. Odamlarni tashish qoidalari.
12. Yuklarni tashish qoidalari.
13. Transport vositalariga yo‘lovchilarni chiqarish, tushirish va tashish.
14. Temir yullarda harakatlanish.
15. Velosipedda harakatlanishga qo‘yiladigan asosiy talablar.
16. Yo‘l-transport hodisalari sodir etilganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

Boshlang‘ich ta’limning 3-4-sinflarining o‘quvchilari uchun yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha takdim etilgan dasturlardan yana biri – bu T.G.Kozlova tomonidan taqdim etilgan “Yo‘llar va bolalar” (“Doroga i deti” dlya 3-4 klassov) mualliflik dasturi³⁷ sanaladi.

“Yo‘llar va bolalar” dasturi bo‘yicha tashkil etiladigan har bir mashg‘ulot umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarining 3-4-sinflari o‘quvchilarini yo‘l harakati qoidalari, ularning tarixi bilan samarali tanishtiradi. Dasturning asosiy maqsadi –

³⁷ <http://www.rusedu.info/CMpro-v-p-74.html>

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yo‘llarda va ko‘chalarda yurish madaniyatini shakllantirishdan iborat. Birinchi mashg‘ulotdan boshlab, o‘quvchilar YHX (yo‘l harakati xavfsizligi) tarixi bilan tanishadilar. Bu esa ularga yo‘llarda yurishga oid u yok bu qoidaning qanchalik muhimligini anglashlariga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar esa bolalarga haydovchi, yo‘lovchi va piyodalarining yo‘l harakati qoidalarini bajarishlarini hamda DAN xodimlari faoliyati bilan ko‘rgazmali tarzda anglashlarini ta‘minlaydi. Bukletlarni tayyorlash jarayonida esa o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, mustaqillik va tashabbuskorlik qobiliyati shakllanadi. Amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, o‘quvchilarni yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqishidan ogohlantiradi. O‘quvchi materiallarining mashg‘ulotlar bo‘yicha qulay taqsimlanganligi esa o‘qituvchilarga darslarga bemalol tayyorlanish imkoniyatini yaratadi. Dastur quyidagi vazifalarning bajarilishini ta‘minlaydi:

O‘quvchilarni yo‘l harakati qoidalarining tarixi bilan tanishtirish.

3-4-sinf o‘quvchilarining yullarda yurish savodxonligini rivojlantirish.

O‘quvchilarda yo‘llarda yo‘nalishlarni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmalarini takomillashtirish.

Yo‘llar bilan muloqoti sharoitida o‘quvchilarning sababiy-hulqiy madaniyatini shakllantirish.

5. O‘quvchilarning yo‘llarda yurishda o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni oshirish.

Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi natijasida o‘quvchilar quyidagilarga doir bilimlarga ega bo‘ladilar:

- Yo‘l harakati qoidalarining yaratilish tarixi.
- Yo‘l belgilari.
- Svetofor singnallari.
- Transport vositalarining turlari.
- Yo‘l-transport hodisalarining sabablari.
- Velosipedda harakatlanish qoidalari.
- Yo‘llarda harakatlanish qoidalari.

Nazariy bilimlar asosida esa o‘quvchilar quyidagi ko‘nikma va malakalarni

o‘zlashtiradilar:

- Yo‘llardagi vaziyatlarda yo‘nalishni to‘g‘ri belgilash.
- Uzining yo‘llardagi xatti-harakatlarini obyektiv baholash.

3. Tengdoshlariga yo‘llarda to‘g‘ri harakatlanish qoidalari tushuntirish³⁸.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari amaliyotini o‘rganish, o‘quv dasturlari bilan tanishish natijasida shu narsa aniqlandiki, O‘zbekiston sharoitida “Yo‘l harakati qoidalari” mazkur ta’lim muassasalarining 7-sinfida o‘qitiladi. Mazkur fan bo‘yicha 2004-yilda Q.Karimova, M.Rixsiyev, B.Mirzayev, I.Mirzayevlarning muallifliklarida “Yo‘l harakati qoidalari” nomli o‘quv qo‘llanmasi³⁹ chop etilgan. Qo‘llanmada yo‘l harakati qoidalalarining umumiy mohiyati muayyan mavzular bo‘yicha ochib berilgan. Mavzular shartli ravishda ikki qismga ajratilgan:

1-qismdan: mamlakat avtomobil sanoatining rivojlanishi, Mototsikl va avtomobillarda odamlarni tashish qoidalari, qishloq yo‘llarida harakatlanish, transport vositalarining harakati va ularning to‘xtash yo‘li, transport vositalaridagi raqam, taniqlik va ogohlantiruvchi belgilar, velosiped haydovchilar uchun qo‘srimcha talablar, velosipedga qo‘yiladigan texnik talablar, velosiped haydovchilarning guruh bo‘lib harakatlanishi, avtomaydonchada velosipedda o‘tkaziladigan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar, o‘quvchilarning yo‘l-transport hodisasi ro‘y bergandagi vazifasi, yakuniy mashg‘ulot, shuningdek, o‘quvchilarning yo‘l harakati qoidalariiga oid mustaqil ishlari kabilar o‘rin olgan.

2-qism esa: yo‘l belgilari, ogohlantiruvchi belgilar, imtiyoz belgilari, ta’qiqlovchi belgilar, buyuruvchi belgilar, axborot-ishora belgilari, serviz belgilari, qo‘srimcha axborot belgilari, sinov uchun savollardan tarkib topgan.

O‘quv qo‘llanmasi mazmuni yuzasidan olib borilgan tahlil unda berilgan mavzular umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga moc kelishini ko‘rsatdi. Jumladan, yo‘llarda velosiped boshqarish 14 yoshga to‘lgan shaxslarga ruxsat etiladi. Yosh nuqtayi nazardan 7-sinf o‘quvchilari

³⁸ <http://www.rusedu.info/CMpro-v-p-74.html>.

³⁹ Yo‘l harakati qoidalari / 7-sinf uchun o‘quv qo‘llanma. Q.Karimova va boshq. – Toshkent:

14 yoshga to‘ladilar. Qo‘llanmada velosiped haydovchilar uchun qo‘sishimcha talablar, velosipedga ko‘yiladigan texnik talablar, velosiped haydovchilarning guruh bo‘lib harakatlanishi, avtomaydonchada velosipedda o‘tkaziladigan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarni berilishi o‘smir-o‘quvchilarda velosipedni boshqarishga oid qoidalar bilan yaqindan tanishtiradi.

Tadqiqotni olib borishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda darsliklarning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganishga ham e’tibor qaratildi. Tahlil natijalarining ko‘rsatishicha, “Alifbe”⁴⁰ darsligida berilgan ayrim matn va tasvirlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Jumladan, 30-betda berilgan matn yordamida o‘quvchilar mакtab ichki tartib-qoidalariga amal qilish zarurligini anglash imkoniyatiga egadirlar.

Darslikning 39-betida berilgan “Bekatda” nomli matn ham o‘quvchilarда jamoa transportlarida yurish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi, qolaversa, ular kattalarga hurmat ko‘rsatish ijtimoiy talablardan biri ekanligini anglaydilar. 60-betda berilgan “Yaxshi bola” matni ham o‘quvchilarini o‘z faoliyatiga nisbatan javobgarlikni his etishga o‘rgatadi, mavjud tartib-qoidalarga rioya qilishga, intizomli bo‘lishga odatlantiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinflari uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi”⁴¹ darsliklari ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishda didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Masalan, darslikning 42-betida berilgan “Svetafor” nomli she’r bilan tanishish jarayonida o‘qivchilar yo‘l harakati qoidalarining mohiyatini o‘zlashtirish bilan birga, ularga rioya etish shaxs hayoti va salomatligini ta’minlash uchun zarur shartlardan biri ekanligiga alohida urg‘u beriladi.

“Minhoj” nashriyoti, 2004. – 80 bet.

⁴⁰ Alifbe / Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: R.Safarova, Minoyatova, M.Shokirova, L.Shermamatova. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2007. – 79 bet.

⁴¹ O‘qish kitobi / Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: T.G’offorova, E.Sodmonov, C.Eshdurdiyeva. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matdaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007. – 128 bet.

Boshlang‘ich ta’limning 2-sinfi uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi”⁴² darsligida ham o‘quvchilarda maktab ichki tartib-qoidalari, jamoa (sinf) topshiriqlarini bajarish, kundalik rejimga amal qilish va xatti-harakatlarni tashkil etishda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga rioya etish ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishini ta’minalashga xizmat qiladigan turkum materiallar berilgan. Jumladan, kundalik rejimga rioya qilishga doir “Vaqt qadri” nomli she’r o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga nisbatan ijobiy munosabatni karor toptirishga yordam beradi.

3-4-sinflar uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi” darsligidan joy olgan quyidagi mavzular ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga nisbatan hurmat hissini shakllantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, 3-sinf uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi”⁴³da berilgan “Sohiba kimdan xafa?”, “Bebaho boylik”, “Qoida”, “Yordam berdi”, “Noahillik oqibati”, “Barno”, “Gulzorda”; 4-sinf uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi”⁴⁴da berilgan “Shum bola”, “Xatosini tushungan bola”, “Yomg‘ir”, “Olti yuz so‘m” kabi mavzularni o‘rganishda ham o‘quvchilarni ijtimoiy hamda huquqiy me’yorlardan xabardor qilib borish imkoniyati mavjud.

Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun mo‘ljallangan “Odobnama”⁴⁵ darslikda berilgan turkum rasm va matnlar ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishga yordam beradi. Chunonchi, darslikning 37-betdagи “Yomon odat”, 56-betdagи “Maktab gulzorida” nomli matn va rasmda ifodalangan g‘oyalar negizida o‘quvchilar ijtimoiy-huquqiy mse’yorlar mohiyatini anglay bilan birga ularga rioya etishning ahamiyatini idrok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

⁴² O‘qish kitobi / 2-sinf uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: Q.Abdullayeva, M.Yusupov, M.Mahmudova, S.Rahmonbekova. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2004. – 176 bet.

⁴³ O‘qish kitobi / 3-sinf uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: M.Umarova, Sh.Hakimova. – Toshkent: “Ijod dunyosi”, 2004. – 240 bet.

⁴⁴ Hasanboyeva O., Ne’matova A., Ibragimova G.. Odobnama / Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 96 bet.

⁴⁵ Hasanboyeva O. Odobnama / Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 64 bet.

2-sinf “Odobnoma”⁴⁶ darsligida berilgan “Ko‘chada yurish odobi” (82-85-betlar) mavzusidagi matn va rasmlar ham o‘quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga rioya qilishga o‘rgatadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga ijtimoiy-huquqiy meyerlarning mohiyati to‘g‘risidagi tushunchalarni singdirish, ularga nisbatan hurmatni qaror toptirish masalalar mazkur yo‘nalish doirasida o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bu yo‘lda pedagogik faoliyatni tashkil etishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologiya xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning hayoti, kundalik faoliyatiga alokador ijtimoiy-me’yorlarni ajratib olish talab etiladi. Ular haqida o‘quvchilarga ma’lumot berishda esa pedagogik faoliyatning ko‘rgazmali bo‘lishiga erishish, hayotiy misollardan o‘rinli foydalanish samaralikka erishish kafolati sanaladi. U mumiy o‘rta ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilib, o‘quvchilar uchun bajarilishi majburiy xarakter kasb etadigan “O‘quvchilar qoidasi” boshlang‘ich sinflarda ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga oid bilimlarni targ‘ib qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur hujjat o‘quvchilar tomonidan ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan faoliyat mazmuni ochib beriladiki, bu orqali ularning hulq-atvori, muomalasi hamda xatti-harakatlari bo‘yicha ruxsat etiladigan va ta’qiqlanadigan holatlar to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “O‘quvchilar qoidasi” bilan izchil tanishtirib borish ularda dialektik tarzda tobora murakkablik kasb etib boradigan ijtimoiy va huquqiy me’yorlar mohiyatini anglash, ularga qat’iy amal qilish malakalarining shakllanishi uchun mustahkam asos bo‘ladi.

⁴⁶ Abdullayeva Q., Yusupova M., Rahmonbekova S. Odobnoma / 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Mehnat”, 2001. – 96 bet.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY-HUQUQIY ME’YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK OQIBATLARI

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari bilan yaqindan tanishtirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Quyida bu borada amalga oshirilgan pedagogik faoliyat mazmuni haqida qisqacha so‘z yuritiladi.

Ma’lumki, har qanday ijtimoiy faoliyatning samarali bo‘lishida jarayonning umumiyligi mohiyatini yorituvchi dasturga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur talabni inobatga olgan holda tadqiqotni olib borishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishga doyr dasturni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. Dasturdan boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarni yo‘l harakati qoidalari bilan tanishtirishga doyr mavzu ham o‘rin oldi. Ushbu mavzuda o‘quvchilarning nazariy bilimlarini boyitish va ularda amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga yo‘naltirilgan bir necha variantdagi 3-4-sinflar uchun mo‘ljallangan tadbirlar rejasi amaliyot uchun taqdim etildi. Rejadan quyidagi mavzular o‘rin oldi:

3-sinflar uchun (18 soat)

1. “Yo‘l harakati qoidalari” mamlakatiga sayohat.
2. Yo‘l alifbosi.
3. Harakatlanish uchun qaysi biri qulay: katta yo‘llarmi yoki yo‘lkalar?
4. Yo‘llar nazorat qilinadimi va buning uchun kim javobgar?
5. Svetofor – yo‘llardagi dono yo‘lboshchi.
6. Transportlar oroli.
7. Yakuniy mashg‘ulot.

4-sinflar uchun (18 soat)

1. Biz yo‘llar bilan do‘stlashamiz.
2. Zamonaviy transport turlari va ularning insonlar hayotidagi o‘rni.
3. Mening sevimli velosipedim.
4. Yosh haydovchiga do‘stona xat.

5. Urmondag'i yo'1 harakati hodisalari.
6. "Yo'1 belgilari" shaharchasiga tashrif.
7. Yakuniy mashg'ulot.

Dasturga kiritilgan mavzu va uning asosida ishlab chiqilgan tadbirlar rejasiga ko'ra tashkil etilgan pedagogik faoliyat quyidagi maqsadga asoslandi: boshlang'ich sinflarida o'quvchilarini yo'1 harakati xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish orqali ularda ko'cha va yo'llarda yurishdagi harakat xavfsizligi to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, ko'cha va yo'llarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ushbu maqsadga muayyan vazifalarni hal qilish orqali erishiladi. Ya'ni:

1. O'quvchilarni ko'cha va yo'llarning mohiyati, yo'1 harakatining ishtirokchilari bilan tanishtirish.
2. O'quvchilarga yo'llar va ko'chalarda to'g'ri harakatlanish qoidalari ga oid ma'lumotlarni berish.
3. O'quvchilarni svetofor va uning vazifalari bilan yaqindan tanishtirish.
4. O'quvchilarning zamonaviy transport turlari haqidagi bilimlarini boyitish.
5. O'quvchilarga yo'1 belgilari va ularning vazifalari to'g'risida ma'lumotlar berish.
6. Amaliy mashqlar yordamida o'quvchilarda yo'llar va ko'chalarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini hosil qilish.
7. O'quvchilarning yo'1 harakati xavfsizligiga oid bilimlarini aniqlash.

Salomlashish kishilar o'rtasida tashkil etiladigan ijtimoiy munosabatlarda muhim o'rinni tutadi. Ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi muomala shakli hamda o'zaro munosabatlar jarayonining boshlang'ich bosqichi sifatida namoyon bo'ladigan salomlashish ikki shaxs o'rtasidagi ruhiy holatni ham ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, salomalashish muayyan me'yollar, axloqiy talablar asosida tashkil etilishi bois o'ziga xos ijtimoiy xususiyat ham kasb etadi. Ana shu jihatiga ko'ra salomlashish jarayonida shaxsning odobi, ma'naviyati, dunyoqarashi hamda madaniy shakllanganlik darajasi

to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

So‘zlashish (suhbatlashish) jarayonida ikki yoki undan ortiq kishilarning bir-birlariga, atrof-muhitga, o‘zlarini o‘rab turgan ijtimoiy va moddiy borliqqa nisbatan munosabatlarini bildirishda muhim ahamiyat kasb etib, jamoatchilik tomonidan tan olingan me’yor (qoida)larga amal qilish har bir shaxs zimmasidagi burch sanaladi. Bu burchning to‘la bajarilishi esa shaxs tomonidan so‘zlashuv me’yorlarining puxta o‘zlashtirilishini taqozo etadi. Shu bois oilada va ta’lim muassasalarida bolalarni yoshlikdan so‘zlashish me’yorlari yuilan tanishtirib borish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biridir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni axloqiy me’yorlar qatorida salomlashish qoidalar bilan tanishtirishda quyidagi vazifalarni bajarish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi:

1. O‘quvchilarga salomlashishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini yoritish.
2. “Assalomu alaykum”, “Salom” va salomlashishda ishlatiladigan boshqa so‘z hamda iboralarining mazmunini ochib berish.
3. O‘quvchilarga “Assalomu alaykum”, “Salom” va ularning muqobilari bo‘lgan so‘z hamda iboralar qo‘llaniladigan, shuningdek, salomlashish ruxsat etilmaydigan sharoitlar to‘g‘risida ma’lumotlar berish.
4. O‘quvchilar tomonidan kishilarning o‘zaro salomlashishlari ijobiy, yaxshi hodisa ekanligini yetarli darajada anglanishini ta’minlash.
5. O‘quvchilarni salomlashish jarayonida qo‘llaniladigan yuz, bosh, gavda va qo‘l harakatlarining ma’nosi haqida ma’lumotlar berish.
6. O‘quvchilarda oila a’zolari, yoshi katta kishilar va tengdoshlari bilan to‘g‘ri salomlashish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Salomlashish vaqtida quyidagilar ta’qiqlanadi:

- “Assalomu alaykum” iborasini qisqarib yoki buzib aytish;
- agar suhbat o‘zbek tilida bo‘lsa, u holda xorijiy tillardagi salomlashish iboralari (“Привет”, “Хелло”, “Чао”, “Салют”, “О, кей” kabi so‘zlar)ni

qo‘llamaslik;

- “Salom berdik” iborasini ishlatmaslik;
- yuz (chehra)ning tund bo‘lishi (o‘zini biror narsadan norozidek tutish);
- qo‘l uchida ko‘rishish;
- qo‘lni qattiq qisish;
- qo‘lni siltash;
- qo‘lni uzoq vaqt ushlab turish;
- qiz bola yoki katta yoshdagи kishilar qo‘l uzatmagunlaricha, ularga qo‘l uzatmaslik;
- qo‘lni qorin ustiga qo‘yish;
- so‘zlarni o‘ta baland ovozda emas, yetarli daraja, aniq ifodalash;
- o‘pishib salomlashmaslik (gigiyena talablariga muvofiq imkon qadar qarindosh-urug‘, ota-onalardan farzandlar, aka-uka, opa-singillar ham bir-birlari bilan o‘pishib salomlashmasliklari kerak);
- ovqatlanayotgan vaqtda qo‘l uzatib salomlashish;
- ko‘pchilik yig‘ilgan tadbiriga kechikib borganda barcha bilan qo‘l berish ko‘rishish;
- ta’ziyaga borganda baland ovoz bilan so‘rashish;
- qabristonda kishilarning bir-birlariga salom berishlari;
- hammom va hojatxonalarda salomlashish.
- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini salomlashish me’yorlari bilan tanishtirish vaqtida ularga xonaga eshikdan kirayotganda albatta salom berish lozimligi uqtirib borilishi kerak.
- O‘quvchilarda so‘zlashuv (muomala) me’yorlariga amal qilmaslikning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish bo‘yicha o‘quvchilarning e’tiborlariga ayrim ma’lumotlar havola etilishi mumkin. Quyida ana shular xususida so‘z yuritiladi.
- Bolalar va kattalar bir-birlari bilan o‘zaro so‘zlashganlarida ma’lum qoidalarga amal qilishlari lozim. Agarda mavjud qoidalarga amal qilinmasa, quyidagi salbiy holatlar ro‘y beradi:

- o‘zini noqulay ahvolga qo‘yish;
- suhbatdoshiga hurmatsizlik qilish;
- suhbatdoshining ko‘nglini og‘ritish;
- suhbatdoshlar o‘rtasidagi do‘stlik, o‘rtoqlikka rahna solish;
- o‘z fikrini yetarli bayon qila olmaslik;
- maqsadini suhbatdoshiga tushuntira olmaslik;
- qo‘pol muomalasi yoki gaplari uchun suhbatdoshdan tanbeh eshitish;
- suhbatdoshida o‘zi haqidagi noto‘g‘ri fikrning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lish;
- atrofdagilarning o‘ziga bo‘lgan hurmatini yo‘qotish.
- Tashkil etilayotgan suhbatning suhbatdoshlar uchun samarali bo‘lishi uchun yana bir qoidaga amal qilish zarur. Bu suhbat vaqtida suhbatdoshning ismini aytishdir. Odatda, bolalar va yoshlar suhbatdoshlariga ularning ismlarini to‘liq yoki qisqartirilgan holda aytib murojaat qilishadi. Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra inson ismini to‘liq aytish talab etiladi. Islom ta’limoti g‘oyalarini ifoda etuvchi manbalar va zamonaviy psixologik tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra har bir so‘zda o‘ziga xos quvvat mavjudligi aniqlangan. Shu sababli, har bir kishiga o‘z ismini eshitish yoqimli tuyuladi. Ismni qisqartirib yoki buzib aytish odobsizlik hisoblanadi.
- Mashg‘ulotlar davrida o‘quvchilar quyidagi hayot va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishni o‘rganib borishlari lozim:
 - - xavfsizlik qoidalarini puxta o‘zlashtirish;
 - fan o‘qituvchilari hamda sinf rahbari tomonidan bayon etilayotgan hayot va texnika xavfsizligiga doyr ma’lumotlarni diqqat bilan tinglash;
 - maktab binosining zahira yo‘laklarining qayerda joylashganligi va favqulotda vaziyatlarda ulardan chiqib ketish qoidalarini o‘zlashtirish;
 - mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya va "Kompyuter saboqlari" darslarida ish qurollari, jismoniy mashqlarni bajarish uchun mo‘ljallangan asbob- uskunalar hamda kompyuterning yaroqligiga, o‘quv xonalari, sport zali yoki sport maydonining ta’lim jarayoniga tayyorligiga, o‘quv xonalari hamda sport

zalining yetarlicha yoritilganligiga e'tiborni qaratish;

- mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya va "Kompyuter saboqlari" darslarida ish kurollari, jismoniy mashqlarni bajarish uchun mo'ljallangan asbob- uskunalar hamda kompyuterdan to'g'ri foydalanish;
- mashg'ulotlar chogida o'zini yomon his qilganda bu haqida o'qituvchiga bildirish;
- o'quv xonalari, sport zali yoki sport maydoniga kirganda va chiqqanda tartib-intizomga rioya qilish;
- o'quv xonalari, sport zali yoki sport maydonidagi jihozlar, ayniqla, elektr jihozlaridan o'qituvchining ruxsatisiz foydalanmaslik;
- o'quv xonalari va sport zalistagi berkitib qo'yilishi zarur bo'lgan jihozlarni mashg'ulot tugandan keyin yopib qo'yish;
- mashg'ulotlar tugagach, ish qurollari, sport va jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish uchun mo'ljallangan anjomlarni joy-joyiga tartib bilan qo'yish, kompyuterni tartibga keltirish (tarmoqdan uzish, ustini yopib qo'yish);
- o'quv xonalari va sport zalistagi yonib turgan chiroqlar haqida o'qituvchiga ma'lum qilish.

Mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya hamda "Kompyuter saboqlari" darslarida o'quvchilarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirish bevosita mazkur fanlar o'qituvchilarning zimmalariga yuklanadi. O'quvchilar bilan ishlashda dastlab o'qituvchilarning o'zları ham xavfsizlik qoidalardan to'la xabardor bo'lishi lozim. Bu o'rinda ulardan quyidagilarni bilish talab etiladi:

- kamida besh yil mobaynida bir marta mehnatni muhofaza qilish kursidan tayyorgarlikdan o'tish;

imkon qadar gimnastik mashqlarni bajarishda qo'llaniluvchi vositalarni sinovdan o'tkazilish jarayonida ishtiroy etish yoki bu boradagi ko'rsatmalar bilan yaqindan tanishish (jismoniy tarbiya o'qituvchilari);

ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish shart-sharoitlarini yaxshilashga doir takliflarni ilgari surish;

- o‘quvchilarni maishiy turmushda mehnatni muhofaza qilish qoidalari bilan tanishtiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil qilish.

Mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya va "Kompyuter saboqlari" darslarini samarali tashkil etilishiga erishish uchun ushbu fanlarning o‘qituvchilari kuyidagi ma’lumotlar bilan izchil tanishib borishlari, zarur vaziyatlarni ularni inobatga olishlari maqsadga muvofiqdir:

- har bir o‘quvchining jismoniy tayyorgarlik va imkoniyatlari to‘g‘risidagi;
- tibbiy ko‘rik natijalaridan so‘ng o‘quvchilar biriktirilgan tibbiy guruhlar haqidagi;
- turli kasallikkardan so‘ng jismoniy tarbiya darslaridan ozod qilingan o‘quvchilar to‘g‘risidagi.

Bir soatlik dars uchun bevosita mas’ul shaxs sanaluvchi o‘qituvchilar darslarda qatnashmayotgan o‘quvchilar, ularning qatnashmayotganliklarining sabablari haqidagi ma’lumotlardan ham xabardor bo‘lishi zarur.

Mehnat, jismoniy tarbiya hamda "Kompyuter saboqlari" fanlarining o‘qituvchilari o‘quvchilarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtirishni turli vaqtarda amalga oshiradi. Ya’ni:

1. Mashg‘ulotlarni tashki l etish oldidan.
2. Dars jarayonida.
3. Ko‘ngilsiz hodisalar sodir bo‘lgan yoki favqulotda vaziyatlar yuzaga kelganda.
4. Mashg‘ulotlar tugagandan keyin.

Yuqorida ko‘rsatilgan muddatning har birida mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya hamda “Kompyuter saboqlari” fanlarining o‘qituvchilari muayyan vazifalarni amalga oshiradi. Quyida ular haqida batafsil so‘z yuritiladi.

1. Mashg‘ulotlarni tashkil etish oldidan o‘qituvchi o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minalash uchun quyidagilarga e’tiborini qaratishi lozim:
 - har yarim yilda bir marta o‘quvchilarni xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi mashg‘ulotni tashkil etish va bu haqida sinf jurnali (yoki

maxsus jurnal)da qayd etib borish;

- o‘g‘il va qiz bolalar uchun yechinish xonalarining tayyorligini ko‘zdan kechirish (jismoniy tarbiya o‘qituvchisi);
- barcha o‘quvchilarning jismoniy tarbiya darsida talab etilgan kiyimlarni kiyganliklari hamda yechinish xonasining yopib qo‘yilganligiga ishonch hosil qilish (jismoniy tarbiya o‘qituvchisi);
- mashg‘ulotlar tashkil etiladigan joyni sinchiklab tekshirib ko‘rish;
- mehnat topshiriqlari, jismoniy mashqlarni xavfsiz bajarilishini, kompyuterdan to‘g‘ri foydalanishni ta’minlovchi chora-tadbirlarni ko‘rish;
- ish kurollari, sport anjomlarining yaroqlilik holatini, asbob-uskunalarining ishonchliligi va mustahkamligini, shuningdek, kompyutering yaroqlilagini ko‘zdan kechirish;
- mashg‘ulotlar oldidan ustaxona, sinf xonasi, sport zalining tabiiy yoki maxsus o‘rnatilgan qurilma yordamida shamollatilishini ta’minlash;
- ustaxona, sinf xonasi va sport zaliga tabiiy yeruglik kam tushadigan vaqtarda binoning elektr chiroqlarini yoqib qo‘yish;
- ustaxona, sinf xonasi hamda sport zalida mashg‘ulotlar tashkil etilayetgan vaqtida zahiradagi chiqish yo‘laklari holatining yaroqligini aniqlash.

2. Dars jarayonida esa fan o‘qituvchilari o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlash yo‘lida quyidagi vazifalarni bajarishlari zarur:

- o‘quvchilarни o‘qitishda qo‘llaniluvchanlik, izchillik tamoyillariga rioya qilish va ular uchun topshirilayotgan mashqlar bilan o‘quv dasturi yuklanmalarining bir-biriga mosligiga erishish;
- kuchli shamol, past harorat va namgarchilik yuqori bo‘lganda o‘quvchilarga yengil mashqlarni topshirish va ularni bajarish vaqtini uzaytirish (jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi);
- murakkab texnik elementlardan iborat mashqlarni bajarishda o‘quvchilarни qo‘srimcha himoyalash chora-tadbirlarini belgilash (jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi);

- o‘quvchilar tomonidan berilgan barcha ko‘rsatmalar, mehnat faoliyatini uyushtirish, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish;
- qoidalariga rioya qilinishini, shuningdek, qo‘polligi yoki doimiy ravishda sodir etayotgan intizomsizliklari uchun o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotida qatnashishdan chetlatilishini nazorat qilib borish.

3. Ko‘ngilsiz hodisalar sodir bo‘lgan yoki favqulotda vaziyatlar yuzaga kelganda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi tomonidan quyidagi vazifalarning bajarilishi talab etiladi:

- biror-bir o‘quvchi mazasi bo‘lmayotganligi yoki o‘zini yomon his qilayotganligini aytganda u ni zudlik bilan maktab vrachining oldiga yuborishi;
- kutilmaganda o‘quvchilardan biri turli darajada va ko‘rinishdagi jarohatlar olgan (biror joyi yorilgan, zarba olgan, pay tortishib qolgan, suyaklar singan)da mutaxassisning birinchi ko‘rigiga qadar "tez yordam" ko‘rsatish;
- tezda ta’lim muassasasining rahbariyatiga sodir bo‘lgan hodisa to‘g‘risida ma’lumot berish;
- ustaxona, sinf xonasi va sport zalida yong‘in sodir bo‘lganda zahiradagi yo‘laklarni ham ochib qo‘yish va ijtimoiy subyektlarni evakuatsiya qilish rejasida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq o‘quvchilarni xavfsiz joyga olib o‘tish, yong‘in to‘g‘risida yong‘in xizmatiga xabar berish hamda yong‘in o‘choqlarini bartaraf etishga kirishish.

4. Mashg‘ulotlar tugagandan keyin ham mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya hamda “Kompyuter saboqlari” fanlarining o‘qituvchilari o‘quvchilar ishtirokida quyidagi xavfsizlik tadbirlarini amalga oshirishi maqsadga muvofikdir:

- o‘quvchilarni ish qurollari, sport anjomlari va qurilmalarini yig‘ishtirish va ularni saqlash joyiga tartib bilan qo‘yishga jalb qilish, shuningdek, kompyuterni tartibga keltirish (tarmoqdan uzish, ustini yopib qo‘yish);

- o‘quvchilarning mashg‘ulot o‘tkazilgan joydan tartib bilan chiqib ketishlarini ta’minlash;
- mashg‘ulot o‘tgan joyni sinchiklab ko‘zdan kechirish, yoritish chiroqlarini o‘chirish, yopiq turishi zarur bo‘lgan jihozlar (javon, shkaf va boshqalar)ni, shuningdek, sport zalini berkitish;
- ustaxona, sinf xonasi sport zali yoki sport maydonining holati uchun mas’ul bo‘lgan shaxsga ta’lim jarayonini tashkil etish jarayonida aniqlangan barcha kamchiliklar to‘g‘risida ma’lumot berish.

Boshlang‘ich sinflarda nafaqat fanlarning o‘qituvchilari, shuningdek, sinf rahbari ham o‘quvchilarning hayotlari xavfsizligini ta’minlash qoidalaridan yetarlicha xabardor bo‘lishlari va zarur vaziyatlarda yordam ko‘rsatish malakalarini o‘zlashtirishlari zarur. Xususan, ular tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun quyidagilarni bilishlari kerak:

1. Tananing ma’lum qismi yorilgan, kesilganda – jarohat o‘rnini dezinfeksiyalovchi suyuqlik bilan artish, uning atroflariga yod bilan ishlov berish, mikroblardan himoyalash maqsadida jarohatning ustini yengil yopib qo‘yish; jarohatdan qon kuchli oqayotgan bo‘lsa, u holda tananing jarohatdan yuqoriyoq, qon chiqayotgan qismini maxsus (jgut) yoki ixtiyoriy boglovchi moslama bilan qattik bog‘lash; maxsus (jgut) yoki ixtiyoriy boglovchi moslamaning ustini marli bilan yopib qo‘yish; zudlik bilan jarohatlanish vaqtin (oy, kun, soat, minutlar)ni aniqlashtirish; jarohat ustiga qo‘sishimcha himoyalovchi bog‘lam qo‘yish.

2. Tananing ma’lum qismi zarba olganda unga sovuk kompress qo‘yish,

zarba o‘rnini bint bilan bog‘lash.

3. Suyaklar chiqqanda o‘quvchining mutlaqo harakat qilmasligini ta’minlash va tezda yaqin orada joylashgan kasalxonaga olib borish; mutaxassis bo‘lmagan shaxsning chiqqan suyaklarni o‘rniga solishiga yo‘l qo‘ymaslik talab etiladi.

4. Muskullar toptishib qolganda 10-15 daqiqa sovuq kompress qo‘yish;

agarda og‘riq o‘tib ketmasa, to og‘riq kamayguniga qadar har 15 minutda sovuq kompressii almashtirib turish; ogriq kamaygach yoki to‘xtagach, jarohat ustini qalin boglam bilan bog‘lab qo‘yish.

5. Suyaklar singanda qonni to‘xtatish; tananing jarohatdan yuqori va past qismiga taxtakach qo‘yish; taxtakachning ostiga yumshoqroq material qo‘yib, so‘ngra uni mahkamroq bog‘lash; o‘quvchining taxtakach qo‘yilgandan keyingi holatini aniqlash va alohida qayd etib qo‘yish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining madaniy xulq-atvorga ega bo‘lishlarida ularning jamoat joylari (kino, teatr, umumiy ovkatlanish va jamoa transporti)da sodir etish mumkin bo‘lмаган xatti-harakatlar, aniqrogi, ta’qiqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning puxta o‘zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oila va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini jamoat joylarida sodir etish mumkin bo‘lмаган xatti-harakatlarga nisbatan qo‘yiladigan ta’qiqlardan ham xabardor etish maqsadga muvofiqdir. Ayni o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining e’tiborlarini quyidagi ta’qiqlarga tortish lozim:

- salomlashish va tanishish vaqtida qovoq uyush;
- o‘zini biror narsadan yoki kimdandir norozidek tutish;
- yomon kayfiyatda ekanligini bildirish;
- qo‘pol ohangda salomlashish;
- suhbatdosh tanishishni yoki suhbatlashishni xohlamasa, u holda, uni hadeb mabjurlash;
- suhbat jarayonida har tomonga alanglamaslik;
- suhbatdoshni diqqat bilan tinglamaslik;
- suhbatdoshning so‘zini bo‘lmaslik;
- suhbatdoshni jerkish;
- uning buyumlariga ruxsatsiz qo‘l uzatish;
- “kiyimini, o‘zini tartibga keltirish, soch turmagini to‘g‘rilash, tirnoq tozalash;
- soch tarash va hurpaytirish;

- jimjiloqda tish tozalash;
- barmoq qirsillatish;
- kaftni bir-biriga urish;
- kiyimni tortqilash;
- hirgoyi qilish;
- noroziligini qo‘pol, tahqiromuz so‘zlar bilan bildirish;
- qo‘l silab gapirish;
- yelka qisish;
- inkor ma’nosida bosh chayqash;
- barmoq bilan biror narsani chertish;
- suhbatdoshga teginish, yelka yo tizzasiga qo‘l qo‘yish, yelkasiga qoqish,

yengi yoki pidjagi tugmasini ushslash;

- suhbatdoshga orqa o‘girish”□;
- esnash, tez-tez qo‘l telefoniga (agar bor bo‘lsa) qarab qo‘yish;
- baland ohangda, shovqin solib gapirish;
- huda-behudaga kulish.

Falsafiy hamda pedagogik qarashlarga ko‘ra ijtimoiy subyektlar tomonidan olib boriladigan har qanday faoliyat, ro‘y beradigan voqeahodisaga turli omillar ta’sir etadi. O‘zbek tilidagi "omil", lotin, nemis va rus tillarida “factor” (“faktor”) tarzida ifodalanib, "yaratuvchi", "ishlab chiqaruvchi" ma’nolarini anglatadi. Mohiyatiga ko‘ra ushbu tushuncha kandaydir jarayon, uning xususiyat va alohida belgilarini aniqlab beradigan harakatlanuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Shaxs xatti-harakatlariga ta’sir etuvchi tashqi muhitning asosiy omillarini quyidagi to‘rtta yirik guruhlarga ajratish mumkin: siyosiy va huquqiy; iqtisodiy; ijtimoiy va madaniy; texnologik (<http://ru.wikipedia.org/wiki>). Omillar ta’sir xarakteriga kura obyektiv va subyektiv, ta’sir natijalariga karab esa ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini samarali shakllantirish jarayonining kechishiga

ta'sir etuvchi tashki omillarni aniqlash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ta'sir natijalarini baholashga jiddiy e'tibor karatildi.

Nazariy tahlil, maktab amaliyotini o'rganish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini kuzatish natijasida ularda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini samarali shakllantirishda quyidagi omillarning roli katta ekanligi aniqlandi: sinf rahbari, fan o'qituvchilari va ota-onalarning pedagogik bilim hamda malakalari darajasi; boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishishga nisbatan qiziqishga egaliklari; ta'lim muassasasida boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, ularning mohiyati va turlari to'g'risidagi bilimlarni targib etish uchun pedagogik shart-sharoitning mavjudligi; oila, ta'lim muassasasi va keng jamoatchilikning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlardan xabaror qilish hamda ularda mazkur me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikka egaligi; ta'lim muassasasi hamda oilalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirib borish borishga doir amaliy ishlarning izchil tashkil etilishi; sinf rahbari, fan o'qituvchilari, ota-onalar yoki oilaning katta yoshli a'zolari tomonidan boshlang'ich ta'lim yoshi o'quvchilariga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga rioya qilishda ibrat ko'rsatilishi; boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirishga doir adabiyotlarning mavjud va yetarli ekanligi; ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga ijobiy munosabatni qaror toptirishga oid xorijiy va mahalliy tajribalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotganligi; umumiy o'rta ta'lim muassasalarida har bir sinfning boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar borasidagi bilimlarni targib etish maqsadini ifodalovchi dastur yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasiga egaligi; boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirish masalasining umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida muhim o'rin tutishi; boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy-

huquqiy me'yorlar targibotini tashkil etishda ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanishga e'tibor qaratilishi; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini yorituvchi manbalar bilan qurollantirilganligi va hokazolar.

Tadqiqot davrida muammoning yechimini topishda ta'siri kuchli baholanayotgan omillar obyektiv va subyektiv tarzida ikki guruhga ajratildi. Ya'ni:

1. Obyektiv omillar:

- ta'lim muassasasida boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, ularning mohiyati va turlari to'g'risidagi bilimlarni targib etish uchun pedagogik shart-sharoitning mavjudligi;
- - oila, ta'lim muassasasi va keng jamoatchilikning boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlardan xabaror qilish hamda ularda mazkur me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'zaro hamkorlikka egaligi;
- ta'lim muassasasi hamda oilalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirib borish borishga doir amaliy ishlarning izchil tashkil etilishi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan yaqindan tanishtirishga doir adabiyotlarning mavjud va yetarli ekanligi;
- umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida har bir sinfning boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar borasidagi bilimlarni targ'ib etish maqsadini ifodalovchi dastur yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasiga egaligi;
- ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga ijobiy munosabatni qaror toptirishga oid xorijiy va mahalliy tajribalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotganligi;
- umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida har bir sinfning boshlang'ich ta'lim tizimida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar borasidagi bilimlarni targib etish maqsadini ifodalovchi dastur yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasiga

egaligi;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan yaqindan tanishtirish masalasining umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatida muhim o‘rin tutishi;

boshlang‘ich ta’lim tizimida ijtimoiy-huquqiy me’yorlar targibotini tashkil etishda ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanishga e’tibor qaratilishi;

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy-huquqiy me’yorlar mohiyatini yorituvchi manbalar bilan qurollantirilganligi.

2. Subyektiv omillar:

- sinf rahbari, fan o‘qituvchilari va ota-onalarning pedagogik bilim hamda malakalari darajasi;

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishishga nisbatan qiziqishga egaliklari;

- sinf rahbari, fan o‘qituvchilari, ota-onalar yoki oilaning katta yoshli a’zolari tomonidan boshlang‘ich ta’lim yoshi o‘quvchilariga ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga rioya qilishda ibrat ko‘rsatilishi va hokazolar.

Pedagogik yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishda yana bir muhim jarayon mavjud bo‘lib, bu jarayon sinov uchun tavsiya etilgan dastur bo‘yicha respondent sifatida tanlangan subyektlarda nazariy bilim yoki amaliy ko‘nikma-malakalarning shakllanganlik darajasini baholashga imkon beradigan mezon hamda daraja ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish sanaladi. Mezon va daraja ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda tanlangan muammo yechimini belgilovchi nazariy tamoyillar hamda respondentlarning xatti-harakatlari (faoliyati)da namoyon bo‘luvchi asosiy belgilar inobatga olinadi. Shunga ko‘ra mezon va daraja ko‘rsatkichlarining o‘z mohiyatiga ko‘ra tatqiq etilayotgan jarayonning umumiy mohiyatini yaqqol aks ettira olishi talab etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning

kechishini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, asosiy, muhim holatlarni tahlil qilish, respondent-o‘quvchilar faoliyatini bevosita kuzatish natijasida quyidagi mezonlar yordamida tajribadan avvalgi va keyingi vaziyatlarni obyektiv baholash mumkin degan fikrga kelindi:

1. Ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning mohiyati hamda turlari to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarga egalik.
2. Ijtimoiy va huquqiy me’yorlarning har bir shaxs, shu jumladan, o‘z hayoti hamda salomatligini muhofazalashdagi ahamiyatini tushuna olish.
3. Oilada, ta’lim muassasasida va jamoat joylarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalariga egalik.
4. Kundalik faoliyatda ijtimoiy va xukukiy me’yorlarga qatiy rioxva kilish. Ta’lim amaliyotida har bir shaxsning psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, ma’naviy-axloqiy hamda aqliy salohiyatiga ko‘ra pedagogik talablarga doim ham birdek amal qilmasligi, qolaversa, ijtimoiy voqeahodisalarga mas’uliyat bilan yondashmasligi xarakterli sanaladi. Shu sababli tadqiqotni olib borishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan o‘zlarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissining shakllanganligi turli darajalarda namoyon etilishi inobatga olindi. Talabga kura respondentlar tomonidan qayd etiluvchi daraja ko‘rsatkichlari muayyan tadqiqot natijalarini baholash imkoniga ega mezonlarga moye kelishi zarur. Ana shu talabga kura boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissining shakllanganligini ifodalovchi daraja ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- 1) yuqori daraja – ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning mohiyati hamda turlari to‘g‘risida yetarlicha nazariy ma’lumotlarga ega; ijtimoiy va huquqiy me’yorlarning har bir shaxs, shu jumladan, o‘z hayoti hamda salomatligini muhofazalashdagi ahamiyatini yaxshi tushu na oladi; oilada, ta’lim muassasasida va jamoat joylarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtira olgan; kundalik faoliyatda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga mustaqil ravishda hamisha qat’iy rioxva qiladi;

2) o‘rta daraja – ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning mohiyati hamda turlari to‘g‘risida qisman nazariy ma’lumotlarga ega; ijtimoiy va huquqiy me’yorlarning har bir shaxs, shu jumladan, o‘z hayoti hamda salomatligini muhofazalashdagi ahamiyatini yetarlicha tushunsa-da, biroq, oilada, ta’lim muassasasida va jamoat joylarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda, shuningdek, kundalik faoliyatda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga mustaqil ravishda hamisha qat’iy rioya qilish ma’lum qiyinchiliklarga duch keladi;

3) past daraja – ijtimoiy va huquqiy me’yorlar, ularning mohiyati hamda turlari to‘g‘risida qisman nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lsa-da, ijtimoiy va huquqiy me’yorlarning har bir shaxs, shu jumladan, o‘z hayoti hamda salomatligini muhofazalashdagi ahamiyatini yetarlicha tushunmaydi; oilada, ta’lim muassasasida va jamoat joylarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilishga nisbatan e’tiborsiz, mas’uliyatsiz, kundalik faoliyatda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga rioya qilishga intilmaydi.

Shunday qilib, kishilar o‘rtasida tashkil etiladigan o‘zaro aloqalar muayyan ijtimoiy me’yorlarga asoslanadi. Shaxsning ijtimoiy me’yorlarga amal qilish uning madaniyati, dunyoqarashi va odobidan dalolat beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odobi va madaniyatlik darajasi ularning jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumi ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da ham ko‘zga tashlanadi. Shu sababli ularni jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumi ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da ruxsat etiladigan qoidalar va ta’qiqlar bilan tanishtirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarishda pedagogik faoliyatni turli shakllarda tashkil etish kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY VA HUQUQIY ME’YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR ILG‘OR ISH TAJRIBALARI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish ijobiy natijalarni beradi. Tadqiqotni olib borish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirish, ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish borasidagi ilg‘or ish tajribalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Quyida ana shular to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishga doir ilg‘or ish tajribalaridan biri – bu T.Lavrenova tomonidan asoslangan “Kichkintoylar uchun yo‘l harakati qoidalari”⁴⁷ nomli o‘yin-mashtulot sanaladi. Mazkur ish tajribasining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishda o‘ziga xos amaliy qiymatga egaligini inobatga olgan holda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda undan samarali foydalanildi. Shu sababli quyidagi o‘yin-mashg‘ulotning umumiy loyihasi to‘laligiga keltiriladi.

Barcha bolalar kabi o‘g‘limiz ham mashinalarga mehr qo‘yan. Biroq, u mehr qo‘yan mashinalar shunchaki bolalar o‘yinchog‘i. O‘g‘lim to‘rt yoshida dadasiga yo‘l belgilariga oid turli savollarni bera boshladi. Dadasi esa “Mana bu belgi nimani anglatadi?”, “Nima uchun bu belgi boshqacha emas?”, “Nima uchun belgilarning ranglari va chiziqlari turlicha?” kabi savollarga javob berishga harakat qilar edi.

O‘g‘lim besh yoshiga to‘lgandan keyin mashinada yo‘lda ketayotganimizda dadasini “Sariq chiroq yonib turgandi, siz esa chorrahadan o‘tib ketdingiz”, “U yerda “50” belgisi bor edi, Siz esa “60”da haydayapsiz” deya tanqid qila boshladi.

Kunlardan bir kuni o‘yinchoq mashinalar yordamida o‘g‘limni yo‘l harakati qoidalari bilan yaqindan tanishtirish haqida o‘ylab qoldim. To‘g‘ri, o‘g‘lim endigina 6 yoshga to‘lyapti, u voyaga yetishi, mashina haydash huquqiga ega bo‘lishi uchun hali vaqt bor. Ammo u yo‘llarda, ko‘chada yo‘lovchi sifatida harakatlanar ekan, ma’lum qoidalarni bilishi kerak. Bu uning hayoti va sog‘ligini muhofazalash uchun muhim. Zero, zamonaviy sharoitda yo‘lda harakatlanish, harakat jarayonida ma’lum qoidalarga rioya qilish shunchaki o‘yin emas, haqiqiy, real hayot.

Bir necha kun avval o‘g‘lim 6 yoshga to‘ldi. Uning yo‘l harakati qoidalari o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi yanada oshdi. Shuning uchun biz uning tug‘ilgan kunida o‘g‘lim va uning o‘rtoqlari uchun “Yosh haydovchilar

⁴⁷ <http://www.7ya.ru/article/Pravila-dorozhnogo-dvizheniya-dlya-malyshey>.

bayrami”ni tashkil qildik. Bu ular uchun ham juda qiziqarli, ham foydali bo‘ldi.

Uyimizga 5 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar mehmonga kelishdi. Ularning soni ota-onadan tashqari 12 nafar edi. Aslida 6 yoshli bola uchun 12 nafar mehmon ko‘plik qiladi. Zero, amerikalik psixologlarning ta’kidlashicha, chaqiriladigan mehmonlar soni bolaning yoshi nechada bo‘lsa, o‘sha songa birni qo‘shib, hosil bo‘lgan yigindi qiymatiga teng bo‘lgan miqdorda bo‘lishi kerak. Shu sababli biz o‘zimizni ro‘y beradigan tartibsizlikka oldindan tayyorlandik. Mehmonlar kelgan zahoti ularni tartibni saqlashlari kerakligini aytdik.

Vaqt tushlikka yaqin bo‘lgani uchun bolalar u qadar och emasdilar, aksincha, o‘zlarini tetik his qilishar va aytganlarimizni so‘zsiz bajarardilar.

Mehmonga kelgan bolalar yoshining turlicha ekanligi rejalashtirgan bayramning barcha bolalar uchun birdek qiziq, talab etiladigan harakatlarni bajarish oson bo‘lishiga e’tibor berishimiz kerakligiga majbur qildi. Bayramning katta yoshli bolalar uchun zerikarli, kichik yoshli bolalar uchun esa qiyin bo‘lmasligi uchun samarali natija beradigan g‘oyalarni ishlab chiqidik. Natijada barcha bolalar birdek o‘yinga qiziqib qoldilar va bayramni u shunchaki o‘yin bo‘lsa ham jiddiy qabul qildilar.

Biz “bunday o‘yinlar” borasida hayotiy tajriba va malakaga ega bo‘lganimiz uchun bayramni nafaqat zavqli, balki imkon qadar ma’lumotlarga boy bo‘lishini ta’minlashga harakat qildik. Eng avvalo, maqsadni aniq belgilab oldik. Zero, agar maqsad bo‘lmasa, hatto musobaqalar ham keraksiz, samarasiz bo‘lib qoladi. Bordi-yu, biz bu musobaqani shunchaki bolalarning yo‘l harakati qoidalariga oid bilimlarini sinab ko‘rish uchun tashkillashtiranimizda, ular, ayniqsa, kichkinalar bo‘layotgan hodisa mazmunini tushunmagan bulardilar va bayram hech qanday mantiqqa ega bo‘lmasdi.

Bayramning asosiy mehmoni – boshida kizil ro‘mol, sariq futbolka va yashil rangli shimli Svetofor Svetoforovich Svetoforov bo‘ldi. Mehmonning

ko‘kragida yana uch ko‘zli karton qog‘oz ham bor.

Bolalar divanga o‘tirib olishib nimadir sodir bo‘lishini kutardilar. Svetofor Svetoforovich tantanali ravishda ularga bugun hamma imtihondan o‘tib, “Yosh haydovchi” unvonini olishlari mumkinligini aytdi.

“Qanday qilib?”, – so‘radi kimdir.

“Bu oddiy”, – degan javob eshitildi. “Buning uchun sizlar Yo‘l harakati qoidalarini, ya’ni yo‘l belgilarining ma’nosini, Davlat avtomobil nazorati (DAN) xodimining ishoraviy harakatlarini hamda “mashina haydash” ko‘nikmalarini o‘zlashtira olgan bo‘lishingiz lozim”.

1) 1-bosqich: nazariy ma’lumotlarni berish. Svetofor

Svetoforovichning aytishicha, yo‘l belgilari mashina va piyodalar tomonidan yo‘lni xavfsiz kesib o‘tilishi uchun yordam beradi. Yo‘l belgilari barcha yo‘llarda bir xil bo‘lib, ularni haydovchilar ham, piyodalar ham tushuna oladilar. Yo‘l belgilari da har bir chiziq va ranglar aniq ko‘rsatiladi, shu bilan birga odamlar adashib ketmasliklari uchun ular bir-birlariga o‘xshamaydigan holda ortiqcha bezak va detallarsiz yaratiladi. Barcha yo‘l belgilari quyidagi tur (guruh)ga ajratiladi:

- 2) ogohlantiruvchi belgilar;
- 3) imtiyoz belgilari;
- 4) ta’qiqlovchi belgilar;
- 5) buyuruvchi belgilar;
- 6) axborot-ishora belgilari;
- 7) qo‘sishma axborot belgilari (ko‘rsatmalar).

Bolalar, shuningdek, belgilarning – tik (vertikal) va yotiqli (gorizontal) turlari haqida ham bilib oladilar. Ularga yo‘l belgilari haqidagi ma’lumotlarni berishda ularning rasmlari tushirilgan plakatlardan foydalanish mumkin.

Svetofor Svetoforovich bolalarga kup ma’lumotlar berishga urinmaydi, chunki yo‘l belgilari haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun bir yil talab etiladi. Shu sababli Svetofor Svetoforovich bolalarga qisqa-qisqa

ma'lumotlarni berib o'tadi xolos.

2-bosqich: amaliy harakatlarni bajarish. Tushuntirish 15 daqiqa davom etadi, shundan keyin bolalarda Svetofor Svetoforovichning so'zlariga nisbatan qiziqishni yo'qota boshlaydilar. Bunga esa aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli darhol amaliy mashg'ulotlarni boshlash lozim. Bolalar ketma-ket turib, qo'llariga xayolan "rul"ni oladilar. Kimdir yengil mashinaning, kimdir yuk mashinasining, yana kimdir poyga mashinasining rulini boshqaradi. Qanday mashinani tanlash bolalarning o'zlariga bog'liq.

Svetofor Svetoforovich "Qani, ketdik!" degan buyruqni bergenidan so'ng bolalar birin-ketin xirillab, gurillab, hushtak chalib mashinalarni yurgizadilar. To'satdan "Chapga!" degan buyruq eshitiladi. Bolalar guruhi chapga buriladi, harakat esa davom etadi. Uyin vaqtida Svetofor Svetoforovichning buyruqlarini diqqat bilan eshitish talab qilinadi. "O'ngga!", "Qayrilib oling!", "Orqaga!" (bolalar qisqichbaqa kabi orqaga tisariladilar). Bu kabi buyruqlar bolalarni diqqatni to'plashga o'rgatadi.

Musobaqani o'tkazish uchun katta maydon bo'lishi zarur. Tartibsizlik bo'lmasligi uchun bolalar ikki guruhga, ya'ni, yetaklovchi (katta yoshli bola)lar va ergashuvchi (kichik yoshli bola)lar guruhlariga ajratildi. Yetaklovchilar oldinga, ergashuvchi bolalar esa orkada turishdi.

Harakatlar boshlanganda, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Natijada kulguli vaziyatlar yuzaga keladi, bolalar ham, ularning ota-onalari ham kulishadi. Bolalar sho'xlik qilishni boshlashganlarida esa bolalarning divanga o'tirishlari kerakligi aytildi. Musobaqaning keyingi bosqichiga o'tiladi.

3-bosqich: "Yo'l belgilarini jonlantiramiz" o'yini. Svetofor Svetoforovich barcha bolalarni uch nafardan qilib guruhlarga ajratadi va har bir guruhga vazifalar yozilgan kartochkalar tarqatadi. Musobaqaning bu bosqichida ota-onalar ham ishtirok etadilar. Ota-onalar bol al ar tomonidan aytildigan yo'l belgilarini topishlari kerak.

Musobaqaning bu jarayonini "Yo'l belgilarini jonlantiramiz" deb nomlash mumkin. Bolalar ko'rsatilgan yo'l belgilarining ma'nosini amaliy

harakatlar yordamida ifodalaydilar:

I. “Ehtiyyot bo‘ling, yo‘lda o‘rdaklar” belgisi. Bir nafar bola “mashina haydaydi”, kutilmaganda yo‘ldan o‘rdaklar (3-4 nafar bolalar) chiqadi. “Haydovchi” o‘rtaklarga yaqinlashmay, mashinani to‘xtashishi kerak.

II. “Ko‘tarma ko‘prik” belgisi. Bolalardan biri yerga yotib, oqayotgan suvning tovushini chiqaradi: “quluq-quluq-quluq”, demak, bu yerda daryo bor. Yana bir bola “mashina haydaydi”. Ko‘tarma ko‘prikka yaqinlashgach, to‘xtab “ko‘tarib qo‘yilgan ko‘prikning tushirilishini kutadi”. Qolgan bolalar “daryo”ning ikki tarafida turib, yuzlarini bir-birlariga qaratgancha, qo‘llari bilan “ko‘prik” yasaydilar va “ko‘prik”ni goh “ochib”, goh “yopadilar”.

III. “Yonilg‘i shahobchasi - 800 m” belgisi. Bolalardan biri “mashina” bo‘lib, to‘rt oyoqlab sekin-asta harakatlanadi, qolgan bolalar esa tillarini osiltirgancha, “mashina”ni oldinga itaradilar.

IV. “Shlagbaumli temir yo‘l kesishmasi” belgisi. Bir bola “mashina”, ikkinchisi “poyezd”, uchinchisi esa “shlagbaum” bo‘lib, shlagbaumli temir yo‘l kesishmasidagi harakatlanish holatini harakatlar yordamida ko‘rsatishadi. “Mashina” “temir yo‘l”ga yaqinlashadi, shu vaqt “shlagbaum” yopiladi. “Mashina” harakatni to‘xtatadi va “poyezd” o‘tib ketishini kutadi. “Poyezd” o‘tib ketgach, “shlagbaum” ochiladi va “mashina” harakatlanishni boshlab, o‘z yo‘lida davom etadi.

V. “Pulli to‘xtash joyi” belgisi. Bir bola “mashina”, ikkinchisi “shlagbaum”, uchinchisi esa “pul to‘lash apparati”. “Mashina” “shlagbaum”ga yaqinlashadi, “shlagbaum” ko‘tarilib, “mashina”ga yo‘l beradi. “Mashina” ma’lum muddat avtomobillar to‘xtash joyida “to‘xtab turadi”. So‘ngra “avtomobil to‘xtash joyi”dan chiqishga harakat qiladi. “Shlagbaum” ochilmaydi. “Mashina” “pul to‘lash apparati”ga zarur summani tashlagandan keyin, “shlagbaum” ochiladi.

4-bosqich: “Orzuimdagi avtomobil” suratini chizish. O‘yin vaqtida

ota-onalar va bolalar o‘zaro birlikni his etishadi. Svetofor Svetoforovich esa hamma yerda hozir-u, nozir. Devorga osilgan qalin qog‘ozlarga ota-onalar va bolalar birqalikda ko‘zlar yumiq holda orzularidagi mashinalarning suratini chizishadi. Har bir ishtirokchi rangli qalamlar yordamida mashinaning ma’lum bir qismini chizadi. Mashinaning muayyan qismini chizishda ishtirokchilar o‘rtasida tortishuvlar kelib chiqmasligi uchun Svetofor Svetoforovich ularni kartochkalar yordamida “Kuzov”, “Chiroqlar”, “Old g‘ildiraklar”, “Orqa g‘ildiraklar” kabi guruhlarga ajratadi.

Ishtirokchilarning ko‘zlarini boglashdan avval ularga suratning shakllantirilgan kismini yaxshilab eslab qolish va plakatga yaqinlashib olishlari uchun imkoniyat beriladi. Svetofor Svetoforovich ishtirokchilar kalin qog‘oz (vatman)dan tashqariga chiqib ketmasliklari va devor qogozlariga ziyon yetkazmasliklari uchun ularni kuzatib turadi. Bolalar uchun rasm chizish juda maroqli.

5-bosqich: “Yangi yo‘l belgilarini yaratish” o‘yini. Bolalar ota-onalarining yordamlarida yangi yo‘l belgilarini yaratadilar. Masalan, “Ko‘lda cho‘milish ta’qiqlanadi!”, “Tovuq fermasi – 300 m”, “Ehtiyyot bo‘ling, yo‘lda mixlar bor!”, “Tovuq oyoqli uy – 2 km”, “Itlar uchun yo‘lak”, “Mushuklarni sayr qildirish ta’qiqlanadi”, “Boshi berk ko‘cha” va boshqalar (umuman xayollariga kelgan uy-fikrni shartli belgilar asosida qog‘ozga tushiradilar). Agar-da, bolalar charchashmasa, navbatdagi bosqichda biror-bir stol o‘yinini o‘ynash mumkin.

6-bosqich: “Shahar ko‘chalarida to‘g‘ri harakatlanish” nomli stol o‘yini. Ota-onalar uchun ham shunga o‘xhash o‘yinni o‘ylab topish mumkin. Belgilar rasmi va nomi tushirilgan turli kartochkalar stol ustiga yoyib qo‘yiladi. Svetofor Svetoforovich ushbu belgilarni qanday va qayerda qo‘llanilishi haqida gapirib beradi. Dastlab har bir ishtirokchi aralashtirilgan kartochkalar ichidan biror bir belgini tanlaydi, so‘ngra ana shu belgining ikkinchisi (jufti)ni topishi kerak bo‘ladi. O‘yin yarim soatgacha o‘ynaladi. Belgilangan vaqt o‘tgach, bolalar Svetofor Svetoforovich tomonidan

beriladigan savollarga javob qaytarib, “Yosh haydovchi” unvonini olishadi.

Shundan so‘ng mehmonlar stol atrofiga o‘tiradilar (dasturxon yozilgan, shamlar yoqilgan, “Tug‘ilgan kuning bilan...” nomli ko‘sish yangraydi).

Ovqatlanib bo‘lingach, o‘g‘limiz o‘z mehmonlari bilan bolalar xonasiga yo‘l olishadi, u yerda o‘zlariga yoqqadigan o‘yinlarni o‘ynaydilar. Keyin esa ota-onalar bilan birga biroz ko‘chada sayr etadilar, multfilm tomosha qiladilar. So‘ngra shirinliklar, tort ist’mol qilishib, uy-uylariga tarqaladilar.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun turkum mualliflik metodikalaridan foydalanildi. Quyidagi ularning mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

Sinov jarayonida qo‘llanilgan mualliflik metodikalaridan biri – bu “Jumani yakunla” metodikasi hisoblanadi. Metodikaning shartiga ko‘ra respondentlar test varaqasida berilgan jumlalarni bir yoki bir necha so‘zlar yord amida yakunlashlari lozim. Test varaqasida quyidagi jumlalar berilgan:

1. Agar men noto‘g‘ri xatti-harakatlarni sodir etganimni bilsam, u holda...
 2. O‘zim to‘g‘ri qaror qabul qilishga qiynaladigan bo‘lsam, u holda...
 3. Qiziqarli, ammo zarur bo‘lmagan, zarur, biroq, zerikarli narsalarni tanlashda, men odatda...
 4. Bordi-yu, men tufayli biror kimsa xafa bo‘ladigan bo‘lsa, u holda men...
 5. Agarda yolg‘on atrofdagilarning menga bo‘lgan yaxshi munosabatlarini saqlab qolishning yagona vositasi bo‘lsa, u holda men...
 6. Bordi-yu, o‘qituvchimning o‘rnida bo‘lganimda, men...
- Respondentlar tomonidan qaytarilgan javoblarning mohiyati: bordi-yu, bola vaziyatni boshqalar (kuchukcha, buvisi yoki Alisher)ning foydasiga hal qilsa, bu uning insonparvarlik tuyg‘ulariga egaligini; agarda qarori o‘zining foydasi uchun xizmat qilsa, u holda bolaning egotsentrik (faqat o‘zim deydigan) xarakterda ekanligini ifodalaydi.

Sinov ishlarini tashkil etishda qo‘llanilgan mualliflik metodikalaridan

yana biri T.P.Gavrilovaning “Tugallanmagan hikoyalar” metodikasidir. Metodikaning maqsadi: o‘quvchilarning atrofdagilarga bo‘lgan munosabati (empatiyasi) kanday mazmunga egaligi (egotsentrik (xudbinona yoki insonparvar ekanligi)ni aniqlashdan iborat. Ushbu metodikani qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi: respondentning e’tiboriga uchta hikoya takdim etil adi. U hikoyalarni tinglab bo‘lgach, berilgan savollarga javob kaytarishi lozim.

Metodikaga ko‘ra T.P.Gavrilova quyidagi hikoyalar taqdim etadi:

1. Bola kuchukcha asrab olishni xohlaydi. Kunlardan bir kuni ota-onasining tanishlari ularnikiga o‘z kuchukchalarini olib kelib, to sayohatdan qaytgunlariga qadar unga qarab turishni iltimos qilishadi. Bola kuchukchaga juda bog‘lanib, uni yaxshi ko‘rib qoldi. U kuchukchani ovqatlantirar, sayrga olib chiqar, unga g‘amxo‘rlik qilardi. Biroq, kuchukcha o‘z egalarini juda sog‘inar, ularning qaytishini kutardi. Bir qancha vaqt o‘tgach, tanishlari sayohatdan qaytishdi va kuchukchani o‘zlariga qaytarish, qaytarmaslikni bolaning o‘zi hal qilishi mumkinligini aytdilar.

Bunday vaziyatda bola qanday ish tutishi kerak? Nima uchun?

2. Bola ko‘chadan mushukcha topib oldi va uni uyiga olib keldi. Buvisi esa, mushukcha kasal bo‘lishi mumkin deb, uni uyga olib kirishiga ruxsa bermadi. Bola bundan juda xafa bo‘ldi va buvisiga baqirdi. Kechqurun esa buvisi: ‘Nima ham qillardim, garchi u yerda yolg‘iz bo‘lsam ham o‘z uyimga qaytishimga to‘g‘ri keladi’, – dedi.

Bunday vaziyatda bola qanday ish tutishi kerak? Nima uchun?

3. Vasya oynani sindirib qo‘ydi. U o‘zini jazolashlari mumkinligidan qo‘rqib ketdi va tarbiyachisiga oynani Andrey sindirganligini aytdi. Bog‘chasida bolalar bundan xabardor bo‘lishdi va Vasya bilan gaplashmay qo‘yishdi, uni o‘yinlariga qo‘shmadilar. Andrey esa o‘ylanib qoldi: “Vasyani kechirishim kerakmi yoki yo‘qmi?”.

Bunday vaziyatda Andrey qanday ish tutishi kerak? Nima uchun?

Tadqiqotning sinov ishlari bosqichida mualliflik metodikalaridan yana

biri qo'llanildi. “Bolalar tomonidan ijtimoiy me'yorlarning anglanishi” deb nomlangan mazkur metodika maktabgacha ta'lim yoshi bolalarining ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

Metodika mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyat quyidagi boskichlar bo'yicha yo'lga qo'yiladi:

1 -bosqich. Bolalarning yosh xususiyatlariga moye ravishda ular tomonidan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarning buzilishiga oid 3-5 ta tugallanmagan hikoyalar o'ylab topiladi.

2-bosqich. Bolalar tomonidan yoshidagi bolalar tomonidan ijtimoiy-axloqiy me'yorlarning buzilishini aks ettiruvchi 10-12 ta tasviriy kartochka tayyorlanadi.

3-bosqich. YE.Blagininaning “Sovg'a” (“Podarok”) she'ri o'qib eshittiriladi va bolalar bilan she'r mazmuni haqida suhbat uyuştiladi.

4-bosqich. Bolalarning ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga bo'lgan munosabatlari yangi o'yinchoqlar yordamida aniqlanadi.

5-bosqich. Suhbat uchun savollar tuziladi va bolalar bilan suhbat tashkil etiladi.

Metodikani qo'llash tartibi: har bir bosqich 2-3 kun oralig'ida yoki tarbiyachining tanloviga ko'ra belgilangan vaqtarda tashkil etiladi. Ammo har bir mashg'ulotda sinf o'quvchilarining barchalari qatnashishlari shart.

Metodika asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayoni:

I bosqich. Bolaga “Men senga kichik hikoya aytib beraman, sen esa uni yakunlashing zarur” deyiladi.

Namuna uchun hikoyalar:

1.Bolalar shaharcha qurishmoqda. Olya o'yinda ishtirok etishni xohlamadi. Shuning uchun bir chetda turib, boshqa bolalarning o'yindagi ishtiroklarini kuzatib turdi. Shu vaqt tarbiyachi bolalarga yaqinlashib, ”Hozir tushlik boshlanadi. Kubiklarni qutichaga solib qo'shinglar. Olya ham sizlarga yordamlashsin”, - dedi. Shunda Olya shunday deb javob berdi: ... Qani, ayt-chi, Olya nima deb javob berdi? Nima uchun?

2.Katyaning tug‘ilgan kunida onasi unga chiroyli qo‘g‘irchoq sovg‘a qildi.

Katya qo‘g‘irchoq bilan o‘ynash boshladi. Shunda uning kichik singlisi Valya Katyaning yoniga kelib, “Men ham siz bilan birga qo‘g‘irchoqni o‘ynashni xohlayman”, - dedi. Shunda Katya shunday deb javob qildi: ...

Qani, ayt-chi, seningcha Katya kanday javob berdi? Nima uchun?

3. Luba va Sasha rasm chizishni yoqtirishadi. Luba qizil qalam bilan, Sasha esa yashil qalam bilan rasm chizyapti. Kutilmaganda Lubaning qalami sinib qoldi. Shunda u: “Sasha, mumkinmi men sening qalaming bilan rasmimni yakunlab qo‘ysam”, - deb so‘radi. Sasha unga shunday javob berdi:

...

Qani, ayt-chi, seningcha Sasha qanday javob berdi? Nima uchun?

Izoh: har bir hikoyani yakunlashda bolaga o‘z javoblarini izohlash imkoniyatini yaratish lozim.

II bosqich. Bolalarga tengdoshlarining ijobiy va salbiy xatti-harakatlari tasvirlangan suratlar taqdim etiladi va shunday topshiriq beriladi: “Sen suratlarni ularda tasvirlangan salbiy va ijobiy xatti-harakatlarga ko‘ra ikki guruhga ajrat. Suratlarni ajratib bo‘lgach, nima uchun shunday yo‘l tutganiningni asoslab ber!”.

III bosqich. 1-qadam. Tarbiyachi YE.Blagininaning “Sovg‘a” she’rini yoddan o‘qib, bolalarga shunday savollarni beradi:

1. Qizaloqning sevimli o‘yinchog‘i qaysi edi?
2. Qizaloq qurbaqasini dugonasiga berishni xohladimi yoki yo‘qmi?
3. Nima uchun u dugonasiga qurbaqasini berdi?
4. Qizaloq to‘g‘ri qildimi yoki noto‘g‘ri?
5. Bordi-yu, sening sevimli o‘yinchog‘ing o‘rtog‘ingga yoqib qolsa, u holda sen nima qilgan bo‘larding? Nima uchun shunday qilasan?

IV босқич. 2-қадам. Bu bosqichda ham avvalgi bosqichlarning ishtirokchilari bo‘lgan bolalar qatnashadilar. Tarbiyachi bol al ar o‘yinchoqlarni bir-birlari bilan o‘ynay olishlari uchun sharoit yaratadi. Sinov

ishi olib borilayotgan alohida xonaga avval bolalardan biri taklif qilinadi. Unga yangi chiroyli o‘yinchoq ko‘rsatilib, uni o‘ynashi mumkinligi aytildi. Bola ushbu o‘yinchoq bilan o‘ynashga kirishib ketgach, xonaga yana bir bola taklif etiladi. Bayonnomaga har ikki bolaning bu jarayondagi hulq-atvori, o‘zaro muloqotlari va hissiy ta’sirlanishlari qayd etib boriladi.

V bosqich. Olingan natijalarini qayta ishlash. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ular tomonidan ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mohiyatining qanday tushunilishi o‘rganiladi. Bolalarning ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mohiyatini qanday tushunishlari ular tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlari, yondashuvlari, hissiy ta’sirlanishlari va tengdoshlari bilan munosabatlariga ko‘ra quyidagicha baholanadi:

Bola ijtimoiy-axloqiy me’yorni to‘g‘ri nomlay oladi, tengdoshlarining xulq-atvorilarini to‘g‘ri baholaydi va o‘z xatti-harakatlarining mazmunini izohlash layoqatiga ega.

Bola ijtimoiy-axloqiy me’yorni to‘g‘ri nomlay oladi, tengdoshlarining xulq-atvorilarini to‘g‘ri baholaydi, biroq, biroq, o‘z xatti-harakatlarining mazmunini izohlash layoqatiga ega emas.

3. Bola tengdoshlarining xulq-atvorlarini ijobiy va salbiy (to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon) tarzda baholaydi, biroq, biroq, o‘z xatti-harakatlarining mazmunini izohlash layoqatiga ega emas va unda ijtimoiy-axloqiy me’yorlar shakllanmagan.

4. Bola o‘z tengdoshlarining xatti-harakatlarini baholay olmaydi. III bosqich yakunida bolalarning real va taxminiy xatti-harakatlari o‘zaro solishtirilib, ularning yoshini inobatga olgan holda xatti-harakatlarning o‘zaro bir-birlariga mosligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi⁴⁸.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiyi va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda dastavval salomlashishning ijtimoiyi va shaxsiy ahamiyatini yoritishga e’tibor karatish talab etiladi.

⁴⁸ Г.А.Урунтаева, Ю.А.Афонькина. Практикум по детской психологии. – Москва: ВЛАДОС, 1995.-С. 59-61.

Quyida o‘quvchilarni salomlashishga oid ijtimoiy me’yorlar bilan tanishtirish borasida belgilangan vazifalarni bajarish jarayoni to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

I. Salomlashishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini yoritish bo‘yicha.

Bunda o‘quvchilar bilan suhbat va savol-javoblarni tashkil etish orqali salomlashishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini ko‘rsatib berish mumkin. O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. “Nima uchun biz bir-birlarimiz bilan salomlashamiz?”.
2. “Kishilar bir-birlari bilan salomlashmasalar nima bo‘ladi?”.
3. “Tengdoshlaringizning Sizga salom berishlarini yoqtirasizmi?”.
4. “Qanday fikrdasizlar: atrofdagilar bilan har kuni salomlashish shartmi?”.
5. “Nima deb o‘ylaysizlar, bir-birimiz bilan salomlashmay qo‘ysak, nima ro‘y beradi?”.

Dars yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quvchilarga salomlashish orqali atrofagilarga hurmat bildirish, kishilarga quvonch ulashish, ezgu tilaklarni izhor etish mumkinligi, o‘zaro salomlashish natijasida mehr-oqibat paydo bo‘lishi, do‘slik va tinchlik o‘rnatalishini tushuntirishga e’tibor beriladi. Mashg‘ulotlar vaqtida o‘quvchilar kishilar salomlashmay qo‘ysalar ular o‘rtasida o‘zaro ishonchsizlik, mehrsizlik, oqibatsizlik kelib chiqishini, shuningdek, nafaqat har kuni, balki har gal o‘zaro uchrashganda salomlashish odoblilikning belgisi ekanligini ham anglab yetadilar.

O‘quvchilarga salomlashish barcha uchun birdek yoqimli hodisa ekanligiga urg‘u berish lozim.

II. O‘quvchilarning salomlashish ijobiy, yaxshi, ezgu hodisa ekanligini anglashlarni ta’minlash bo‘yicha.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari salomlashishning kishilar uchun ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushunib olganlaridan so‘ng, bu boradagi

tushunchalarni mustahkamlashga qaratilgan amaliy harakatlar tashkil etiladi. Suhbat, savol-javob va turli ertak yoki multfilm qahramonlarining xatti-harakatlariga asoslangan kichik hikoyalarni bayon etish asosida o‘quvchilarining salomlashishga bo‘lgan munosabatlari o‘rganiladi. Mazkur o‘rinda o‘quvchilarining e’tiborlariga quyidagi kichik hikoya va savollarni havol qilish mumkin:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishda, yana shuningdek, ularga so‘zlashish (so‘zlashuv) me’origa doyr ma’lumotlarni ham berish so‘z yuritilayotgan jarayonning samarali kechishini ta’minlaydi.

O‘quvchilarini “so‘zlashish” hamda “muomala”, shuningdek, “so‘zlashish me’yorlari” (“muomala me’yorlari”) kabi tushunchalar bilan tanishtirishda ularni quyidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir:

“*So‘zlashish*” – bolalar va kattalar tomonidan fikrning og‘zaki bayon etilishi.

“*Muomala*” – bolalar va kattalarning bir-birlari bilan so‘zlashuvi.

So‘zlashish, muomala – bu ikki yoki undan bola yoki katta kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqani yuzaga keltiradigan jarayon.

“*So‘zlashish me’yorlari*” – bolalar yoki kattalar tomonidan fikr og‘zaki bayon etilayotganda amal qilinishi zarur bo‘lgan talablar.

“*Muomala me’yorlari*” – bolalar yoki kattalar bir-birlari bilan so‘zlashayotganlarida amal qilinadigan talablar.

O‘quvchilarga so‘zlashuv (muomala)ning, kishilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni tashkil etishdagi ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini yoritish bo‘yicha o‘qituvchi quyidagilar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi zarur:

So‘zlashish orqali bolalar va kattalar bir-birlari bilan aloqa qiladilar, bir-birlarining holidan xabardor bo‘ladilar. So‘zlashish chog‘ida bolalar yoki kattalarning orzu-istiklari, o‘y-niyatlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Bolalar va kattalar

so‘zlashish orqali bir-birlariga yordam kerakligini anglaydilar va muhtojlarga yordam berishga shoshiladilar.

So‘zlashish har bir bola yoki katta yoshli kishi uchun zarur. Chunki so‘zlashish orqali atrofda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalardan xabar topiladi. Shu bilan birga so‘zlashish natijasida turli ma’lumot, axborot va bilimlar o‘zlashtiriladi.

Suhbat mazmunidan kelib chiqqan holda so‘zlashish turlicha namoyon bo‘ladi. Ular quyidagichalardan iborat:

- 1) salomlashish;
- 2) tanishish;
- 3) iltimos qilish;
- 4) savol berish;
- 5) minnatdorchilik bildirish.

Salomlashish ikki kishining bir-biri bilan uchrashishi vaqtida bir-birlaridan hol-ahvol so‘rash sanaladi. Salomlashish vaqtida suhbatdoshlarning yuzlari ochiq bo‘lishi, tabassum qilishlari, bir-birlariga yaxshi niyatlarni ifodalovchi so‘zlarni aytishlari talab qilinadi.

Shu bilan birga o‘quvchilar salomlashishda quyidagi talablarga amal qilishlari lozim:

1) salomlashish so‘zlari sifatida qabul qilingan so‘z va iboralardan foydalanish:

- bunda agar o‘rtoqlar bilan uchrashib qolinsa, u holda “Salom”, “Yaxshimisan?”, “Ishlaring yaxshimi?” deb murojaat qilish;
- kattalar bilan uchrashilganda esa qo‘lni o‘ng ko‘krak ustiga qo‘shegian holda “Assalomu alaykum”, “Ahvollaringiz yaxshimi?”, “Sog‘liqlaringiz yaxshimi?”, “Charchamay yuribsizmi?” kabi iboralarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

2) salomlashish vaqtida qo‘pol yoki jargon (buzib ishlatiladigan) so‘zlarni qo‘llamaslik yoki noma’qul harakatlarni qilmaslik:

- tengdoshlar, o‘rtoqlar bilan uchrashganda “Privet”, “Chao”,

Somalaykum” (arabchadan tarjima qilinganda bu so‘z “Sizga o‘lim tilayman” ma’nosini anglatadi);

- o‘rtoqlar bilan uchrashganda hech qanday so‘zsiz, bugungi kunda urf bo‘lganidek, o‘zaro bosh urishtirish;
- o‘rtoqlar bilan o‘pib ko‘rishmaslik.

Agarda o‘zaro uchrashgan kishilar bir-birlariga notanish bo‘lsalar, u holda suhbat tanishishdan boshlanadi. Tanishish chog‘ida ham ma’lum talablarga rioya qilinishi shart. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ham tanishish vaqtida amal qilinadigan qoidalar to‘g‘risida ma’lumot berish, ularda tanishish jarayonini to‘g‘ri uyushtirish ko‘nikma-malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratish lozim.

O‘quvchilar asta-sekin tanishish chog‘ida quyidagi iboralarni qo‘llashga odatlanishlari kerak:

1. Siz bilan tanishishga ruxsat eting!
2. Siz bilan yaqindan tanishishni xohlardim!
3. Keling, tanishaylik!

So‘zlashishda, odatda, biror-bir narsa yuzasidan iltimos qilishga ham to‘g‘ri keladi. Bu holda dastlab uzr so‘rash kerak. Chunki murojaat qilinadigan kishi biror ish bilan mashg‘ul bo‘lishi yoki biror narsani o‘ylayotgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun “Uzr！”, “Kechirasiz！”, “Ruxsat bersangiz！” kabi so‘zlar bilan murojaat qilib, keyingina, “Iltimos！”, “Mumkin bo‘lsa...”, “Agar Sizga noqulay bo‘lmasa...”, “Agar Sizga qiyinchilik tug‘dirmasa...” degan holda iltimos qilish zarur.

Suhbatlar chog‘ida savol bilan murojaat qilishga nisbatan ham talablar qo‘yiladi. Bu talablar quyidagilardan iborat:

1) *oilada, jamoa joylarida savol berishga to‘g‘ri kelsa yoki savol berish ehtiyoji tug‘ilsa, u holda shunday yo‘l tutiladi:*

- dastlab uzr so‘raladi;
- savol bilan murojaat qilinadi (savol bilan murojaat qilinganda “So‘rasam mumkinmi？”, “Bir savol bersam maylimi？”, “Ayta olmaysizmi？,

“Ko‘rsatib yuborolmaysizmi”, “Marhamat qilib, menga aytsangiz!”, “Tushuntirib qo‘ya olmaysizmi?” kabi iboralardan foydalanish odob qoidalaridan sanaladi);

2) *ta’lim muassasasida dars vaqtida o‘qituvchiga savol bilan murojaat qilishga to‘g‘ri kelsa, u holda quyidagicha yo‘l tutish to‘g‘ridir:*

- o‘ng qo‘l ko‘tariladi;
- o‘qituvchi ruxsat bergandan so‘ng savol bilan murojaat qilinadi;
- bordi-yu, o‘qituvchi savol berishga ruxsat bermasa, u holda dars tugashi kutib turiladi va mashg‘ulot yakunida yoki mashg‘ulot tugagandan keyin o‘qituvchiga savol beriladi.

Belgilangan qoidaga muvofiq, dars vaqtida savol istalgan paytda berilmaydi, balki, o‘qituvchining yoki so‘zlayotgan o‘quvchi so‘zini tugatgandan keyin, yoki umuman, mashg‘ulot tugagandan keyingina savol bilan murojaat qilish lozim. Odatda o‘qituvchilar mavzuni tushuntirib bo‘lganlaridan keyin o‘quvchilardan “Savollar bormi” deb so‘rashadi. Shu vaqtda o‘quvchi o‘zini qiziqtirayotgan savolni berishi mumkin.

So‘zlashish jarayonida, shuningdek, suhbatdoshga minnatdorchilik bildirishga ham to‘g‘ri keladi. Bunda ham muayyan qoida (talab)larga rioya qilish kerak. Ya’ni:

- 1) ochiq so‘z, salgina tabassum qilish;
- 2) umumiyl axloqiy me’yorlardan kelib chiqqan holda ma’lum so‘zlarni qo‘llash (bunda “Rahmat”, “Tashakkur”, “Minnatdorman”, “Sog‘ bo‘ling!”, “Uzoq umr ko‘ring!”, “Ishlaringiz o‘ngidan kelsin!”, “Kuningiz xayrli o‘tsin!”, “Omaditingizni bersin!” kabi so‘z va iboralardan foydalanish mumkin).

So‘zlashish me’yorlariga ko‘ra suhbat chog‘ida suhbatdoshga to‘g‘ri murojaat qilish ham muhim hisoblanadi. Suhbatlar chog‘ida odatda suhbatdoshga “Sen” yoki “Siz” deb murojaat qilinadi. Bunda suhbatdoshning yoshi va o‘ziga qay darajada yaqinligi inobatga olinadi. O‘zbek xalqida tengdoshlarga nisbatan “Sen”, katta yoshdagilarga nisbatan esa “Siz” deb

murojaat qilinadi.

Tashkil etilayotgan suhbatning suhbatdoshlar uchun samarali bo‘lishi uchun yana bir qoidaga amal qilish zarur. Bu suhbat vaqtida suhbatdoshning ismini aytishdir. Odatda, bolalar va yoshlар suhbatdoshlariga ularning ismlarini to‘liq yoki qisqartirilgan holda aytib murojaat qilishadi. Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra inson ismini to‘liq aytish talab etiladi. Islom ta’limoti g‘oyalarini ifoda etuvchi manbalar va zamonaviy psixologik tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra har bir so‘zda o‘ziga xos quvvat mavjudligi aniqlangan. Shu sababli, har bir kishiga o‘z ismini eshitish yoqimli tuyuladi. Ismni qisqartirib yoki buzib aytish odobsizlik hisoblanadi.

Shunday qilib, so‘zlashish (suhbatlashish) ikki yoki undan ortiq kishilarining bir-birlariga, atrof-muhitga, o‘zlarini o‘rab turgan ijtimoiy va moddiy borliqqa nisbatan munosabatlarini bildirish jarayoni sanaladi. Kishilar o‘zaro so‘zlashish (suhbatlashish) vaqtida jamoatchilik tomonidan tan olingan me’yor (qoida)larga amal qiladilar. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini so‘zlashish me’yorlaridan xabardor qilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY VA HUQUQIY ME’YORLARGA HURMAT HISSINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Tajriba-sinov ishlari davrida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari salomlashishning kishilar uchun ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushunib olganlaridan so‘ng, bu boradagi tushunchalarni mustahkamlashga qaratilgan amaliy harakatlar tashkil etildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “Assalomu alaykum”, “Salom” va salomlashishda ishlatiladigan boshqa so‘z hamda iboralarining mazmunini bilan yaqindan tanishtirib borilsalar, ular salomlashishning ijtimoiy ahamiyatini yanada to‘laroq anglaydilar. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga salomlashish chog‘ida “Assalomu alaykum” va “Salom” kabi so‘zlargina ishlatilib qolmasdan, “Xayrli tong”, “Xayrli kun”, “Xayrli kech”, “Xayrli tun”, “Hormang!” kabi iboralardan ham foydalanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berishi lozim. Dars va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida salomlashishda qo‘llaniladigan so‘z va iboralarning ma’nolarini yoritishda o‘qituvchi quyidagi lug‘atdan foydalanishi mumkin:

1. Assalomu alaykum – Siz tinch-omon bo‘ling!; Sizga tinchlik va omonlik tilayman!
2. Salom – Sizga tinchlik, xavfsizlik yor bo‘lsin!
3. Xayrli tong – Tongingiz xayrli (yaxshi) bo‘lsin!
4. Xayrli kun – Kuningiz xayrli (yaxshi) bo‘lsin!
5. Xayrli kech – Oqshomingiz xayrli (yaxshi) bo‘lsin!
6. Xayrli tun – Tuningiz xayrli (yaxshi) bo‘lsin!
7. Hormang! – Bajarayotgan ishingiz Sizni charchatmasin!

Deyarli barcha xalqlarda salomlashish chog‘ida og‘zaki nutqdangina emas, balki turli harakatlar – yuz ifodasi, bosh, gavda va qo‘l harakatlaridan foydalanish odatlari mavjud bo‘lib, ular yordamida o‘zaro salomlashayotgan kishilarning bir-birlariga xayrixoh ekanliklari yanada yorqinroq aks ettiriladi.

Shu bilan birga salomlashish vaqtida ifodalanadigan yuz ifodasi, gavda va qo‘l harakatlari o‘ziga xos, alohida mohiyat kasb etadi. Quyida ana shular to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar beriladi.

- 1) salomlashish chog‘ida yuz (chehra)ning ochiq bo‘lishi – bir-birlari bilan salomlashayotgan kishilarning ko‘rishganlaridan xursand ekanliklarini, bir-birlarini hurmat qilishlari yoki yaxshi ko‘rishlarini bildiradi (ma’nosi: “Sizni ko‘rganimdan juda xursandman”, “Sizni ko‘rganimdan juda quvondim”);
- 2) salomlashish vaqtida boshning biroz egilishi – o‘zaro salomlashayotgan kishilarning bir-birlariga bo‘lgan alohida hurmatini ifodalaydi (ma’nosi: “Sizni hurmat qilaman, shuning uchun Sizning oldingizda bosh egaman!”);
- 3) salomlashish jarayonida gavdaning biroz egilishi, ta’zim bajo keltirilishi – o‘zaro salomlashayotgan kishilarning bir-birlariga bo‘lgan hurmatlari cheksiz ekanligini bildiradi (ma’nosi: “Sizni haddan ziyod hurmat qilaman, shuning uchun Siz oyog‘ingiz oldida bosh egaman!”);
- 4) salomlashish chog‘ida kishilarning bir-birlariga qo‘l uzatishlari – bir-birlariga do‘sit ekanliklarini ifodalash (ma’nosi: “Qo‘lim bo‘sh, unda hech qanday qurol yo‘q!”);
- 5) salomlashish vaqtida o‘ng qo‘lni ko‘tarib, kaftni ochib ko‘rsatilishi – salomlashayotgan kishilarning bir-birlariga dushman emasliklarini, shuning uchun qo‘llarida qurol yo‘qligini bildiradi (ma’nosi: “Men Sizga dushman emasman, shuning uchun qo‘lida qurolim yo‘q”);
- 6) salomlashish davrida o‘ng qo‘lning chap ko‘krak ustiga qo‘shilishi – salomlashayotgan kishilarning bir-birlarini yurakdan yaxshi ko‘rishlarini ifodalaydi (ma’nosi: “Men Sizni chin yurakdan yaxshi ko‘raman”, “Men Sizni yuragimdan yaxshi ko‘raman”);
- 7) salomlashish chog‘ida quchoqlashib ko‘rinish – salomlashayotgan kishilarning bir-birlarini juda yaxshi ko‘rishlarini, bir-birlarini sog‘inishganliklarini bildiradi (ma’nosi: “Men Sizni juda yaxshi ko‘rganligim

sababli doimo sog‘inaman”; “Men Sizni juda sog‘indim”);

8) salomlashish vaqtida bir-birlarining yelkalariga qoqib qo‘yish – salomlashayotgan kishilarning bir-birlariga o‘zaro minnatdorchilik bildirishlari; bunday salomlashish, odatda, yoshi katta kishilar, keksalar tomonidan amalga oshiriladi (ma’nosi: “Ezgu tilak bildirayotganligingiz uchun men Sizdan minnatdorman”);

9) salomlashish jarayonida salom beruvchining peshonasidan o‘pish – salomga alik olayotgan kishining salom beruvchi kishini sog‘-salomat ko‘rayotganligidan xursand ekanligini, uning boshi omon bo‘lishini tilab niyat qilayotganligini bildiradi, bun tarzda salomlashish ham odatda, yoshi katta kishilar, keksalar tomonidan qo‘llaniladi (ma’nosi: “Rahmat, hamisha boshingiz omon bo‘lsin!”).

Dars yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga salomlashishda “Assalomu alaykum” iborasini to‘g‘ri, to‘liq talaffus qilish zarurligini uqtirib o‘tishi talab etiladi. Chunki yoshlar orasida mazkur iborani noto‘g‘ri, noto‘liq shaklda qo‘llash odati mavjud. YA’ni ayrim yoshlar atrofdagilarga salom bergenlarida “Somalaykum” deb murojaat qilishadi. “Arab tilida “som” so‘zi “o‘lim” ma’nosini anglatadi. Shu sababli “Somalaykum” deyish orqali “Sizga o‘lim tilayman!” deb niyat qilayotganliklarini ularning o‘zлari ham anglamaydilar.

Suhbat, savol-javob va turli ertak yoki multfilm qahramonlarining xatti-harakatlariiga asoslangan kichik hikoyalarni bayon etish asosida o‘quvchilarning salomlashishga bo‘lgan munosabatlari o‘rganiladi. Mazkur o‘rinda o‘quvchilarning e’tiborlariga quyidagi kichik hikoya va savollarni havol qilish mumkin:

1. Kunlardan bir kuni Karlson Mittivoy bilan uchrashganda salom berishni unutdi. Mittivoy undan nega salomlashmaganligini so‘raganda, Karlson “Kecha salomlashdim-ku!? Nima uchun har safar uchrashganimizda salomlashishim kerak. Menimcha, bir marta salomlashib, keyin butun umr salom bermaslik mumkin?” deb javob berdi.

Qani, aytinglar-chi, Karlsonning bu ishi to‘g‘rimi?

2. “Zulmat o‘lkasi” nomli mamlakatda odamlar bir-birlari bilan salomlashmas ekanlar, aksincha, bir-birlari bilan urishar, bo‘lar-bo‘lmas narsalar uchun o‘zaro tortishishar ekanlar. Yosh shahzoda bu holatga barham berish uchun otasi – qiroldan “Bir-birlaringiz bilan salomlastinglar! Agar bu buyruqqa bo‘ysunmasanglar, qattiq jazolanasizlar!” deb farmon chiqarishini so‘rabdi.

Aytinglar-chi, farmon chiqarilgandan keyin shahzoda o‘z orzusiga erishadimi?

3. “Seni-mi, shoshmay tur!” multfilmidagi Bo‘ri Quyonga “Mening yomon fe’limni bir narsa o‘zgartirishi mumkin. O‘rmon hayvonlari har gal menga duch kelganlarida salom berishsin. Bu menga juda yoqadi. Shundagina men boshqalarga jabr qilmayman”, - dedi.

Bolalar, aytinglar-chi, o‘rmon hayvonlari Bo‘riga salom berishga odatlanishsa, u atrofdagilarga jabr qilmaydigan bo‘ladimi?

4. Charog‘on yoz kunlarining birida qunduzchalar Qunduz amakiga shunday murojaat qilishdi: “Amaki, biz bir masala yuzasidan o‘zaro tortishib qoldik. Ana shu masalani hal qilishda bizlarga yordam bering: biz bir-birimiz bilan bir kunda bir marta salomlashishimiz kerakmi yoki har gal bir-birimizga duch kelganimizdam?”.

Bolalar, Sizlar nima deb o‘ylaysizlar, Qunduz amaki bu savolga qanday javob berishi kerak?

5. Vinni-Pux daraxt kovagidan asalni olish uchun Pyatachok pufagini berib turishni so‘radi. Pyatachok unga o‘tgan gal Vinni-Puxning o‘zi kovakdan asal olmoqchi bo‘lganida asalarilar pufakni yorib qo‘yishganliklarini aytdi. Vinni-Pux pufakning yorilib qolishida Pyatachok aybdor emasligini tushunsa-da, ammo baribir kovakdan asal ololmayotganligi uchun undan xafa bo‘ldi. Shu kundan boshlab Vinni-Pux Pyatachok bilan gaplashmay, hatto salomlashmay qo‘ydi. Bu voqeadan xabar topgan ho‘tikcha Ia-Ia bir o‘rmonda yashab Vinni-Pux Pyatachokning bir-birlari bilan

salomlashmasliklari odobdan emasligini tushuntirdi. Salomlashish ular o‘rtasida xafagarchilikka barham berishini aytdi.

Sizlar, nima deb o‘ylaysizlar, ho‘tikcha Ja-Ja haqmi?

Sinov ishlari davrida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kichik guruhlarga biriktirilgan holda ularda suhbatlashish ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradigan o‘yinlardan foydalanish kutilgan natijalarni berdi. Mashg‘ulotlar va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida kuyidagi o‘yinlardan foydalanildi:

I. “**Keling, tanishamiz!”** o‘yini.

O‘yin maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanishish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin tashkil etiladigan sharoit: ochiq maydon yoki sinf xonasi.

O‘yin ishtirokchilari va ularning soni: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar va o‘quvchilari, 30 nafargacha o‘quvchi.

O‘yindagi rollar: suhbatdoshlar, kuzatuvchilar, baholovchilar.

O‘yinning bosqichlari:

1) jami o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi (o‘quvchilarni guruhlarga ajratishda “Suhbatdoshlar”, “Kuzatuvchilar”, “Baholovchilar” kabi so‘zlar yozilgan kartochkalardan foydalaniladi);

2) o‘yin ishtirokchilari bilan birgalikda tanishish chog‘ida qo‘llaniladigan so‘z va iboralar, ruxsat etiladigan xatti-harakatlar va ta’qiqlanadigan qoidalar to‘g‘risida suhbat tashkil etiladi;

3) o‘qituvchi biror bir hamkasbi bilan birgalikda “Tanishish” sahnasini namoyish etadilar;

4) “Suhbatdoshlar” guruhidagi o‘quvchilar juft bo‘lib, bir-birlari bilan tanishadilar;

5) “Kuzatuvchilar” guruhidagi o‘quvchilar bir-birlari bilan tanishgan tengdoshlarining xatolari yoki yutuqlarini topadilar;

6) “Baholovchilar” guruhidagi o‘quvchilar “Kuzatuvchilar” guruhidagi tengdoshlarining fikrlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydilar.

O‘yin jarayonida “Kuzatuvchilar” va “Baholovchilar” tomonidan

“Suhbatdoshlar” guruhidagi o‘quvchilarining xatti-harakatlari o‘z vaqtida to‘g‘rilanishi va to‘g‘ri baholanishi uchun o‘qituvchi savollar bilan o‘yin ishtirokchilariga murojaat qilib turadi. Savollar taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

I. “Kuzatuvchilar” guruhi uchun:

1. Tanishish to‘g‘ri tashkil etildimi?
2. Tanishish vaqtida qaysi jumla o‘z o‘rnida ishlatildi?
3. Tanishish chog‘ida qanday xatolarga yo‘l qo‘yildi?
4. Bu o‘rinda qanday jumla qo‘llanishi kerak edi?
5. Komil (Sanjar) qanday xatoga yo‘l qo‘ydi?
6. Sevara (Nargiza)ning yutug‘i nimada bo‘ldi? Va hokazo.

II. “Baholovchilar” guruhi uchun:

1. “Kuzatuvchilar” tomonidan aniqlangan xatolar to‘g‘rimi?
2. “Kuzatuvchilar” yutuq deb bilgan harakat haqiqatdan to‘g‘ri tashkil etildimi?
3. “Kuzatuvchilar” qanday jumлага e’tibor bermadilar?
4. Komil (Sanjar) haqiqatda xatoga yo‘l qo‘ydimi?
5. Sevara (Nargiza)ning yutug‘i so‘zlarni to‘g‘ri ishlatganidami yoki harakatlarni to‘g‘ri tashkil etganidami? Va hokazo.

O‘yin so‘nggida o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining o‘yin jarayonidagi umumiyligi og‘zaki baholaydi va suhbatlashish me’yorlariga rioya qilgan o‘quvchilarni rahbatlantiradi. O‘quvchilarni rag‘batlantirishda “Rag‘bat” so‘zi yozilgan yulduzchalardan foydalaniadi.

II. **“Turli mavzulardagi suhbat” o‘yini.**

O‘yin maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida suhbatlashish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘yin tashkil etiladigan sharoit: ochiq maydon yoki sinf xonasi.

O‘yin ishtirokchilari va ularning soni: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar va o‘quvchilari, 30 nafargacha o‘quvchi.

O‘yindagi rollar: ota-onalar va farzandlar; o‘qituvchi va o‘quvchilar;

akalar va ukalar; opalar va singillar; ikki dugona; ikki do'st.

O'yinda namoyon bo'ladigan vaziyatlar:

- 1) salomlashish;
- 2) iltimos qilish;
- 3) savol berish;
- 4) minnatdorchilik bildirish.

O'yining bosqichlari:

- 1) jami o'quvchilar to'rt guruhga bo'linadi (o'quvchilarni guruhlarga ajratishda "Do'stlar", "Akalar va ukalar" (yoki "Opalar va singillar"), "O'qituvchi va o'quvchilar", "Dugonalar" kabi so'zlar yozilgan kartochkalardan foydalaniladi);
- 2) o'yin ishtirokchilari bilan birgalikda salomlashish, iltimos qilish, savol berish va minnatdorchilik bildirish chog'ida qo'llaniladigan so'z va iboralar, ruxsat etiladigan xatti-harakatlar va ta'qiqlanadigan qoidalar to'g'risida suhbat tashkil etiladi;
- 3) "Do'stlar" guruhidagi o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashish sahnasini namoyish etadilar;
- 4) sinf o'quvchilari ishtirokida "Do'stlar" guruhi o'quvchilarining harakatlari tahlil qilinadi;
- 5) "Akalar va ukalar" (yoki "Opalar va singillar") guruhidagi o'quvchilar bir-birlaridan biror narsani iltimos qilish sahnasini namoyish etadilar;
- 6) sinf o'quvchilari ishtirokida "Akalar va ukalar" (yoki "Opalar va singillar") guruhi o'quvchilarining harakatlari tahlil qilinadi;
- 7) "O'qituvchi va o'quvchilar" guruhidagi o'quvchilar o'qituvchiga savol bilan murojaat qilish sahnasini namoyish qiladilar;
- 8) sinf o'quvchilari ishtirokida "O'qituvchi va o'quvchilar" guruhi o'quvchilarining harakatlari tahlil qilinadi;
- 9) "Dugonalar" guruhidagi o'quvchilar bir-birlariga minnatdorchilik bildirish sahnasini namoyish qiladilar;
- 10) sinf o'quvchilari ishtirokida "Dugonalar" guruhi o'quvchilarining

harakatlari tahlil qilinadi;

11) o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining o‘yin jarayonidagi umumiylishtirokini og‘zaki baholaydi va suhbatlashish me’yorlariga rioya qilgan o‘quvchilarni rahbatlantiradi. O‘quvchilarni rag‘batlantirishda “5” raqami yozilgan doiralardan foydalaniladi.

O‘yin jarayonida har bir guruhdagi o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan noto‘g‘ri harakatlarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash maqsadida o‘qituvchi o‘yin ishtirokchilariga vaqt-vaqt bilan savollar beradi. Savollar taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Bolalar, aytinlar-chi, o‘rtoqlaringiz bir-birlari bilan to‘g‘ri salomlashdilarmi?
2. O‘rtoqlaringiz iltimos qilishda talablarga rioya qildilarmi?
3. O‘rtoqlaringiz o‘qituvchiga savol berishni to‘g‘ri tashkil qildilarmi?
4. Dugonalar bir-birlariga minnatdorchilikni to‘g‘ri ifodalashdimi?
5. Salomlashish (iltimos qilish, savol berish va minnatdorchilik bildirish)da qaysi jumla o‘z o‘rnida ishlatildi?
6. O‘rtoqlaringiz salomlashish (iltimos qilish, savol berish va minnatdorchilik bildirish)da qanday xatolarga yo‘l qo‘yishdi?
7. Salomlashish (iltimos qilish, savol berish va minnatdorchilik bildirish)da qanday jumla qo‘llanishi kerak edi?
8. Feruza (Shahzoda) xatoga yo‘l qo‘ydimi?
9. Behruz (Shohruh) nimani to‘g‘ri bajardi? Va hokazo.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy me’yorlar negizida madaniy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishda kichik hikoya, test va topishmoqlardan foydalanish, shuningdek, sinf jamoasining jamoat joylarida bo‘lishi va o‘quvchilar tomonidan ijtimoiy me’yorlarga rioya etilishini tahlil qilish samarali kechadi. Quyida ana shu maqsadga xizmat qiladigan ishlanmalar tavsiya etiladi.

I. “Buratino kinoteatrda” muammoli hikoyasi.

Kunlardan bir kuni Buratino kinoteatrga tomosha ko‘rgani bormoqchi

bo‘ldi. U tartibsiz bo‘lganligi sababli uyda kiyib yurgan iflos kiyim-boshi va loy tekkan poyafzalini ham almashtirib olishga erindi. O‘zi bilan birga Baroq nomli mushugini ham ergashtirib oldi. Puli yo‘qligi tufayli, chipta sotib olishni xayoliga ham keltirmadi. Nazoratchi boshqa tomoshabinlarning chiptalarini tekshirayotganda yashirincha kinoteatr binosiga kirdi. Kinoteatr binosidagi favvoradan suv otilayotganligini ko‘rib, “Baroqvoy, qara, favvora！”, deb qichqirdi. So‘ngra tomosha zaliga kirib, oldingi qatordagi o‘rindiqlardan biriga o‘tirdi. Tomosha boshlanguncha zerikib ketdi. Biroz nima qilarini bilmay, Baroqvoyni qiynab o‘tirdi. Keyin esa cho‘ntagidagi pistani chaqib, po‘choqlarini o‘rindiq tagiga tashladi. Tomosha boshlanib, to tugaguniga qadar ham “qahramonlar”ning xatti-harakatlariga e’tiroz bildirib, shovqin solib o‘tirdi. Bu ham yetmaganidek, o‘rindiqning qoplamasini yirtdi. So‘ngra besabrliligi tufayli tomoshaning yakunlanishini ham kutmay, zaldan chiqib ketdi.

Bolalar, aytinlar-chi, Buratino kinoteatrda qanday xatti-harakatlarni to‘g‘ri bajardi? U qanday xatolarga yo‘l qo‘ydi?

O‘qituvchi o‘quvchilarining kinoteatrda amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy me’yorlarni puxta o‘zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratadi. Buning uchun har bir gap mazmuni tahlil qilib boriladi. Ayni o‘rinda o‘quvchilarining faolligini kuchaytirish maqsadida o‘qituvchi tomonidan qisqa va aniq savollar ham berilishi mumkin. Masalan:

1. Buratinoning iflos kiyim-boshi va loy tekkan poyafzal bilan kinoteatrga borishi to‘g‘rimi?
2. Buratinoning kinoteatrga Baroq mushugini olib borganligi uni yaxshi ko‘rishini bildiradimi?
3. Tomosha ko‘rish uchun Buratino kabi chipta sotib olmasa ham bo‘laveradimi?
4. Buratino Baroqvoyning e’tiborini favvoraga qaratmoqchi bo‘lganida qanday xatoga yo‘l qo‘ydi?
5. Buratino oldingi qatordagi o‘rindiqqa o‘tirgan bo‘lsa, buning nimasi

noto‘g‘ri?

6. Kinoteatrda Buratino psita po‘chog‘ini qayerga tashlashi kerak edi?
7. Buratino o‘rindiqning qoplamasini yirtgan bo‘lsa, uni yangilab qo‘yish qiyinmi?
8. Buratino tomosha o‘ziga yoqmaganligi uchun zaldan chiqib ketdi.
Uning bu harakati to‘g‘rimasmi?

II. “Muzeyga sayohat” testi.

1. Muzeyga qanday kiyim-bosh va poyafzallar bilan kelmaslik kerak?
 - a) qimmatbaho kiyim-boy va poyafzal bilan;
 - b) iflos kiyim-bosh va poyafzal bilan;
 - s) arzon kiyim-bosh va poyafzal bilan.
2. Muzeyga nimalarni olib kirmaslik kerak?
 - a) o‘quv qurollarini;
 - b) turli o‘yinchoqlarni;
 - s) turli yegulik va ichimliklarni.
3. Muzeyda nimalarga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish kerak?
 - a) muzey buyumlariga;
 - b) shaxsiy buyumlarga;
 - s) o‘zgalarga tegishli bo‘lgan buyumlarga.
4. Muzeyda sheriklar bilan qanday ovozda suhbatlashish mumkin emas?
 - a) quvnoq ovozda;
 - b) past ovozda;
 - s) baland ovozda.
5. Zaldan zalga va qavatdan qavatga o‘tishda nima ta’qiqlanadi?
 - a) tez yurish;
 - b) yugurish;
 - s) sekin yurish.

III. “Birgalikda ovqatlanamiz” nomli sahna ko‘rinishi.

O‘yinda 2-4 nafardan ikki guruhga bo‘lingan ishtirokchilar

o‘quvchilarga umumiy ovqatlanish muassasalarida ovqatlanish tartibini ifodalovchi sahna ko‘rinishlarini namoyish etadilar. Sinf o‘quvchilari har ikki guruh ijrosini tahlil qiladilar. O‘quvchilar tahlilni o‘qituvchi tomonidan berilgan ushbu savollar asosida ham olib borishlari mumkin?

1. Nima uchun ovqatlanish muassasalariga iflos kiyim-bosh yoki poyafzal bilan kirmaslik kerak?
2. Nima uchun ovqatlanish muassasalariga hayvonlarni olib kirish ta’qiqlanadi?
3. Ovqatlanish muassasalarida tozalik va ozodalikka rioya qilish shartmi?
4. Ovqatlanish chog‘ida nima uchun mobil telefonidan foydalanish mumkin emas?
5. Ovqatlanish vaqtida muassasa mulkiga qanday munosabatda bo‘lish kerak?
6. “Muassasani ifloslantirmaslik” deganda nimalarni tushundingiz?

IV. “Jamoat transportlaridan foydalanish” ekskursiya.

Ekskursiya vaqtida o‘quvchilarning jamoa transportidan foydalanishda ruxsat etilgan holatlar va ta’qiqlarning mohiyatiga doir bilimlari mustahkamlanadi. So‘ngra o‘quvchilarga jamoa transportidan foydalanishda ruxsat etilgan holatlar va ta’qiqlarni yorituvchi rasmlar chizish vazifasi topshiriladi. Topshiriq o‘quvchilar tomonidan bajarib bo‘lingach, har bir ish muhokama qilinadi. Muhokama savol-javob asosida tashkil etiladi.

Jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da jamoa tartibini saqlash va atrofdagilarga noqulaylik tug‘dirmaslikka oid qo‘srimcha ma’lumotlar sifatida muassasalarda yakka tartibda tartibni saqlash bo‘yicha tayyorlagan ko‘rsatma, eslatma yoki estaliklarini aytib o‘tish mumkin. Masalan, kinoteatrлarda qo‘srimcha ma’lumotlar sifatida tomoshabinlar e’tiboriga garderobdan foydalanish tartibi taqdim etilishi mumkin.

Shunday qilib, kishilar o‘rtasida tashkil etiladigan o‘zaro aloqalar

muayyan ijtimoiy me'yorlarga asoslanadi. Shaxsning ijtimoiy me'yorlarga amal qilish uning madaniyati, dunyoqarashi va odobidan dalolat beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odobi va madaniyatlilik darajasi ularning jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da ham ko'zga tashlanadi. Shu sababli ularni jamoat joylari (kinoteatr, muzey, umumiy ovqatlanish muassasasi va jamoa transporti)da ruxsat etiladigan qoidalar va ta'qiqlar bilan tanishtirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarishda pedagogik faoliyatni turli shakllarda tashkil etish kutilgan natijaga erishish imkonini beradi.

XOTIMA

Boshlang'ich ta'lif tizimi o'quvchilarni shaxslararo munosabatlar negizi tashkil etuvchi ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda katta imkoniyatlarga ega. O'quvchilar "O'qish", "Tarbiya", "Atrofimizdagi olam" va "Konstitutsiya alifbosi" kabi o'quv fanlarini o'rganish jarayonida bosqichma-bosqich ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirib boradilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlar targ'ibotini izchil tashkil etilishini ta'minlaydi. Bu esa ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasiga ijtimoiy va huquqiy me'yorlar targ'ibotini yorituvchi tadbirlarni kiritish zarurligini anglatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lif va ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida "O'quvchilar qoidasi", salomlashish va so'zlashish odobi, to'g'ri ovqatlanish tartibi, kiyinish madaniyati, jamoa joylarida o'zni tutish, harakat xavfsizligi va jamoa transportidan foydalanish qoidalari, madaniy muassasalar – kinoteatr, muzey va istirohat bog'larida bo'lish qoidalari, yong'in hamda texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishadilar.

O'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda boshlang'ich sinflar o'qituvchilari alohida o'rin tutadilar. Ularning mashg'ulot va ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda o'tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishga nisbatan qiziqishni shakllantiradi.

O'quvchilarining hayotlari, sog'liqlarini muhofaza qilish uchun ularni hayot va texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirishga boshlang'ich sinflarda ham jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi. Nazariy o'rganish va maktab amaliyoti bilan yaqindan tanishish boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotlariga xavf mehnat ta'limini tashkil etish jarayonida, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, "Kompyuter saboqlari" darslarida, shuningdek, ular yo'llarda, transportlarda harakatlanayotganlarida yuzaga kelishi aniqlandi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilib, o'quvchilar uchun bajarilishi majburiy xarakter kasb etadigan "O'quvchilar qoidasi" boshlang'ich sinflarda ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga oid bilimlarni targib qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjat o'quvchilar tomonidan ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan faoliyat mazmuni ochib beriladiki, bu orqali ularning hulq-atvori, muomalasi hamda xatti-harakatlari bo'yicha ruxsat etiladigan va ta'qiqlanadigan holatlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini "O'quvchilar qoidasi" bilan izchil tanishtirib borish ularda dialektik tarzda tobora murakkablik kasb etib boradigan ijtimoiy va huquqiy me'yorlar mohiyatini anglash, ularga qat'iy amal qilish malakalarining shakllanishi uchun mustahkam asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 46 6.
2. O‘zbekiston respublikasi Oliy majlisining 1999-yil 28-avgustdagи jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida” gi 466-i-son qarori
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 6.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017-yildagi "Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida" 187-sonli qarori
5. Aliqulova H.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy adolat tushunchalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fanl.nomz... diss. – Toshkent: 2008. – 130 b.
6. Богданова О.С. Культура поведения // Российская педагогического энциклопедия. Т. 1. – Москва: Эксмо, 1993. – 608 с.
7. Большая детская энциклопедия досуга. – Москва: ООО Изд-во РОСМЭН-Пресс, 2003. – 288 с.
8. Большая психологическая энциклопедия / Авторский коллектив: А.Б.Альмуханова и др. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 197-396.
9. Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiysi / Mualliflar: Q.A.Abdullayeva, R.G‘.Safarova,M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbayeva, M.Zayniddinova // Boshlang‘ich ta’lim j. – Toshkent: 1998. 6-son. – 12-18-6.
10. Дубровина И.В. Мы живём среди людей. Кодекс поведения. – Москва: 2002. -64 с.
11. Karimova O. Konstitutsiya alifbosi / 1-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo’llanma. – Тошкент: “Sharq” nashriyot-matdaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2007. – 32 b.
12. Mavlonova R., To’rayeva., Xoliqberdiyev. Pedagogika / Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Тошкент: “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 453-b.
13. Pedagogika fanidan izohli lug‘at / Mualliflar: J.Hasanboyev va boshq. M.X.Toxtaxodjayevanig umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2009. – 250-251-6.
14. Pedagogika fani konsepsiysi /R.H.Jo‘rayev, R.Safarova, X.Ibragimov, U.Musayev // Xalq ta’limi j. – Toshkent: - № 5. 2004. – 8-33-b.
15. Sirliboyeva B. O‘smir-o‘quvchilarda axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011. – 20-6.
16. Uzoqov I. A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz... diss. – Toshkent: 2008. – 137 6.
17. Усачёв А. Правила дорожного движения. Для будущих водителей и их родителей (для младшего и среднего школьного возраста). – Москва: Школьная библиотека, 2006. – 62 с.
18. Falsafa. Qisqacha izohli lug‘at / Mualliflar: M.N.Abdullayev va boshq. Mas’ul muharrir: A.Jalolov. – Toshkent: “Sharq” NMAK Bosh tahriri, 2004. – 36-193-6.
19. Etiket / Tuzuvchi: M.Yo‘ldosheva. – Toshkent: “Yangi asr avlodи”, 2004. – 18-6.
20. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A – D / 5 jildli. Birinchi jild. A.Matvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 89-6.
21. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tartibot – Shukr / 5 jildli. To‘rtinchi jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 372-6.
22. O‘qish kitobi / 3-sinf uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: M.Umarova, Sh.Hakimova. – Toshkent: “Ijod dunyosi”, 2004. – 240 b.
23. O‘qish kitobi / 2-sinf uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: Q.Abdullayeva, M.Yusupov, M.Mahmudova, S.Rahmonbekova. – Toshkent: “O’qituvchi” nashriyoti, 2004.-176 b.
24. O‘qish kitobi / Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Muallif-

- tuzuvchilar: T.G'offorova, E.Sodmonov, C.Eshdurdiyeva. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matdaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007. – 128 b.
25. O'qish kitobi / Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 4-sinfi uchun darslik. Muallif-tuzuvchilar: S.Matchonov, A.Sholalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. – Toshkent: “Yangiyul polygraph service”, 2007. – 272 b.
26. Hadislар-bolalarga. – Toshkent: “Adolat”, 2004. – 15-b.
27. N.G. Dilova Ajdodlar merosini o'rganish asosida talabalarni shaxslararo munosabatga tayyorlash “Ta'lism va innovatsion tadqiqot lar” xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2021 5 son.
- 28.N.G.Dilova /Ajdodlar merosini o'rganish asosida talabalarni shaxslararo munosabatga tayyorlash/ “Ta'lism va innovatsion tadqiqot lar” xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2021-yil 5-son
- 29.<http://www.mukhin.rU/stroysovet/krl/6.html>.

MUNDARIJA

So‘z boshi.....

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishning mazmuni.....

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosligi.....

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish yo‘llari.....

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishga doir ilg‘or ish tajribalari.....

Oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilikning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirishdagi hamkorligi mazmuni

Xotima.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

HAKIMOVA NARGIZA SUPXONOVNA

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI
HAYOTIDA IJTIMOIY-HUQUQIY
ME’YORLARNING
O‘RNI**

METODIK QO‘LLANMA

“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning o‘rni” nomli metodik qo‘llanma Buxoro davlat universiteti o‘quv uslubiy kengashining 6 - yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan.
(2022-yil 31-yanvardagi 6-son bayonnomasi qarori)

Bosishga ruxsat etildi: 2019.05.05.

Bichimi 60x84 “Tayms uz” garniturasi

Ofset usulida bosildi

Shartli b.t. 8,0; Nashr tabog‘i:

Tiraji: Buyurtma №2000

Buxoro davlat universiteti
o'quv-metodik kengash 7-sonli
yig'ilishining bayonnomasidan

K O' CH I R M A

26.02.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi N.S. Hakimovaning 5111700-boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari uchun "Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarining o'rni" deb nomlangan uslubiy qo'llanma tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

M.Y. Faranova (kengash kotibasi) - Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi N.S. Hakimovaning 5111700-boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari uchun "Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarining o'rni" deb nomlangan uslubiy qo'llanmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu uslubiy qo'llanmaga AnDU, Umumi pedagogika kafedrasi v.b. dotsenti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) N.A. Atakulova va Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. G.R. Akramovalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. Uslubiy qo'llanma muhokamasi haqidagi Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti (2022-yil 5-fevral) va Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi (2022-yil 3-fevral) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Maktabgacha ta'lism kafedrasi o'qituvchisi N.S. Hakimovaning 5111700-boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari uchun "Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarining o'rni" deb nomlangan uslubiy qo'llanma nashrga tavsiya etilsin.



R.G'. Jumayev

M.Y. Faranova

O'quv-metodik kengash

O'quv-metodik kengash kafibasi